

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI
"TASVIRIY SAN'AT TARIXI VA NAZARIYASI" KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani f.f.d. L.Raupova

“ _____ ” 2018 yil

5150200 – San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at) ta'lim yo'nalishi talabasi

JO'RAYEVA MATLUBA MANNON QIZINING
"HAYKALTAROSH ILHOM JABBOROV IJODI" mavzusidagi
MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: “tasviriy san'at tarixi va nazariyasi kafedra mudiri: S. A. Kurbanov

“ _____ ” 2018 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi”

Kafedrasi mudiri S.A.Kurbanov

“ _____ ” 2018 yil

Toshkent – 2018

“Tasviriy san’at tarixi va nazariyasi ” kaferdasining 2018 yil _____ dagi № _____ - sonli majlisida hamda San’atshunoslik fakultetining 2018 yil _____ dagi № _____ - sonli Fakultet Kengashida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi : Toshkent arxitektura va qurilish instituti “Arxitektura tarixi va nazariyasi” kafedrasi mudiri:

Sh. N. Abdullaev

Himoya 2018 yil 12 – iyun soat 9⁰⁰ da Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o’tkaziladi.

Manzil: Mirobod tumani Mironshoh ko’chasi 123 – uy.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	4
--------------------	----------

I BOB. XX ASR O'ZBEKISTON HAYKALTAROSHLIGIDAGI TENDENSIYALAR

1.1. XX asr ikkinchi yarmi haykaltaroshlik san'ati.....	10
1.2. Haykaltarosh Ilhom Jabborovning ilk ijodiy shakllanish davri.....	29

II BOB.O'ZBEKISTON MUSTAQILLIK YILLARI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATIDA ILHOM JABBOROV IJODI

2.1. Ilhom Jabborov ijodida tarixiy shaxslar obrazi.....	41
2.2. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ilhom Jabborov ijodida mahobatli asarlar.....	54

XULOSA.....	63
--------------------	-----------

ILOVALAR.....	66
----------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68
--	-----------

ILLYUSTRATSIYALAR RO'YXATI.....	72
--	-----------

KIRISH

O'zbekistonda 1990 - yillardan boshlangan yangi tarixiy davrda boshqa san'at turlari qatori haykaltaroshlik san'ati ham e'tiborga sazovor ijodiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Yangi madaniy siyosat o'laroq mamlakatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, milliy an'analarni tiklash, tarixiy madaniy o'zligimizni anglash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etdi va buning pirovardida mazkur jabhada g'oyaviy-shakliy yangilanish jarayoni vujudga keldi, oldingi ijodiy yondashuvlardan farq qiluvchi yangi sifat bosqichiga yo'l ochildi. Chunonchi, endilikda ijodiy vazifalar yo'nalishi keskin o'zgarib, badiiy talqin va plastik uslub mezonlari yangi muhitga mos yo'sinda kuzatilmogda, milliy mavzular ko'lami kengayib, plastik kashfiyotlar borasida ham ma'lum ko'rsatkichlarni egallamoqda. Jumladan, mahobatli haykaltaroshlikda milliy maktabga mos turli yondashuvlar zuhur etishi, soha rivojiga yangicha sayqal bermoqda. Oldingi davrda milliy obrazli yodgorliklar aksariyat hollarda jamoatchilik binolari va muassasalar ichiga o'rnatilgan bo'lsa, bu yillardan shahar markazlari, shox ko'chalari hamda bog'- xiyobonlarga o'rnatish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Ayniqsa, ayrim muhtasham haykallarni me'moriy gumbazlar hamohangligida bunyod etilishi milliy haykaltaroshlik hissini yanada yaqqol sezilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat ilgarigi rivojlanish davrida milliy xazinamizga tamomila joylashib ulgurmagan ushbu san'at turida, 1990-yillardan boshlab sezilarli darajada o'zgarishlar qaror topayotganini ko'rsatadi.

Yangi davrdagi davlatda jamiyat qurilishini ustuvor besh tamoyillarning birida belgilangan davlatning bosh islohotchi ekanligi ham haykaltaroshlikning rivojida munosib o'rin egallamoqda. Bu borada Respublika birinchi prezidentining: - "Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy- davlatning o'zi"¹ degan ta'kidlari o'rnlidir.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. T. 5. -56 - b

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida hozirgi kunda ham Prezidentimiz Shavkat Mirzizoyev tomonidan san'at va madaniyat sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarishborasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Mavzuning dolzarbliji. Mazkur malakaviy bitiruv ishining dolzarbliji shundaki, haykaltarosh Ilhom Jabborovning ijodi bugungi kunga qadar chuqur o'rganilmagan. Haykaltarosh asarlari san'atshunoslar tomonida chuqur tahlil etilmagan. Shu jihatlari bilan mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzusi dolzarbdir. Bu murakkab, ijodiy imkoniyatlari keng, buyuk va abadiy san'atning rivoji, muammolari, an'analari va tendensiyalarini o'rganish haykaltaroshlikda ijodiy faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlarni ijodini yoritish, tadqiq etish hozirgi kunda juda dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston haykaltaroshlik san'atining rivojlanishida o'zining katta hissasini qo'shayotgan taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborovdir.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi haykaltarosh Ilhom Jabborovning ijodiy faoliyatiga bag'ishlanadi. Ilhom Jabborovning ijodi hozirgi kunga qadar san'atshunoslar tomonidan alohida o'rganilmagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, haykaltaroshning o'zi haqida yozilgan monografik ilmiy manbaning yo'qligi ham mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur izlanish doirasida O'zbekiston san'ati rivojiga bag'ishlangan bir qator ilmiy adabiyotlar va monografiyalar bilan tanishib chiqish taqozo etiladi. Mavzuning yanada keng va to'laqonli yoritilishi maqsadida mavzuga doir bo'lgan bir qator ilmiy manbalar bilan tanishib chiqildi. XX asr haykaltaroshligi haqida “Искусство Советского Узбекистана”² kitobida ma'lumotlar berilgan. Bu kitobga V. Dolinskaya, P. Zohidov, T. Qodirova, T. Silantyeva, R. Taktash. A. Umarov, D. Faxriddinova kabi san'atshunoslar tadqiqotlari

²Искусство Советского Узбекистана. 1917 – 1972. М.: 1976

asosida yuzaga kelgan namunalar kiritilgan. Bu kitobda haykaltaroshlik san'atining XX asrning 30-yillarida paydo bo'lganligi va sust rivoji haqida ta'kidlanadi. Lekin bu kitobda tasviriy san'atning va aynan haykaltaroshlik san'atining 1970-yilgacha bo'lgan tarixi va rivoji yoritilgan. 1970-1980-yillar O'zbekiston haykaltaroshligi san'atshunos olimlar R. Taktash, A. Hakimov, E. Xo'jayeva, G. Bobojonova, I. Umarovlar tomonidan o'rghanilgan. R. Taktash bilan E. Xo'jayevalar dastgohli, A. Hakimov va I. Umarovlar zamonaviy bezakli hamda G. Bobojonova mahobatli turlari bo'yicha ilmiy izlanganlar. Xususan, R. Taktashning "Станковая скульптура Узбекистана 1960-1980-х годов"³"Художественные процессы в изобразительном искусстве Узбекистана 1980-ое (живопись, скульптура)",⁴ G. Bobojonavaning "Синтез искусств на современном этапе (тенденции и развитыя)"⁵ "Увековечивая память павших",⁶ "Поиски своеобразия в 1970-1980-е годы"⁷ kabi tadqiqotlarni hamda A. Hakimovning "Современная декоративная пластика Республики Средней Азии"⁸ nomli kitobini ta'kidlash mumkin. Bular orasida R. Taktashning qo'lyozma ishlari 1960-1980- yillar ijodiy jarayoni to'g'risida bat afsil ma'lumotlar beradi. Unda 1960-yillardan yuzaga kela boshlagan zamonaviy bosqich va uning 1970-yillardagi rivojlanishi yoritilib, barcha ijodkorlar haqida ijobiy tavsiflar bayon etilgan.

San'atshunoslik doktori R. Taktash O'zbekiston haykaltaroshligining 1970-1980-yillarga xos jarayoni tog'risida so'z yuritib, "1930-1940-yillardagi shakllanish holatidan chiqib olganini hamda o'zbek tasviriy san'atining muhim sohasiga aylanganligini" ta'kidlaydi. Olimning fikriga tayanib, 1950-yillargacha bo'lган

³Р.Такташ. Станковая скульптура Узбекистана 1960-1980-х годов. Ташкент, 1989 – Фонд НИИ Искусствознания. № 1339.

⁴ Р. Такташ. Художественные процессы в изобразительном искусстве Узбекистана 1980-ое (живопись, скульптура). Ташкент, 1995. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1408.

⁵ Г. Бабажанова. Синтез искусств на современном этапе (тенденции и развитыя). - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1315.

⁶ Г. Бабажанова. Увековечивая память павших. - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1293.

⁷ Г. Бабажанова. Поиски своеобразия в 1970-1980-е годы. - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1293\65.

⁸ А.Хакимов. Современная декоративная пластика Республики Средней Азия. Ташкент: Фан,1992.

original shakllanish davri, 1970-yillardan keyingi jarayonlarni esa rivojlanish bosqichi sifatida tasnif etishimiz bir qadar asosli bo’ladi.

B. Bobojonova oldingi davrda o’rnatilgan II jahon urushi qurbanlari haykallarining badiiy salmog’ini tadqiq etar ekan, badiiy saviyali yodgorliklar bilan birga ijodiy muammolarga ham alohida e’tibor qaratadi. Xususan, Buxoro (Romiton tumani, haykaltarosh V. Kuriyajkin). Xorazm (Qo’shko’pir tumani haykaltarosh N. Pak), Farg’ona (Toshloq tumani, haykaltarosh L. Parelman) kabi viloyatlarda jangchilarga o’rnatilgan ayrim haykallarda kasbiy tajribasizlik tufayli ma’no yechimi to’liq ochib berilmaganligi, materiallarni ham obraz uyg’unligiga mos ravishda tanlanmaganligini bayon etadi. Shuningdek, jangchilarga atalgan yuzlab yodgorliklar va ona obrazlari gavdalantirilgan beton haykallarning badiiy saviyasini salbiy baholab, ularni uch guruhga bo’lib izohlaydi. Birinchi guruh tarkibiga malakali ijodkorlarga tegishli haykallar; ikkinchi guruhga havaskorlar, ya’ni maktab o’quvchilari (uyushgan), ishchilar, askarlar, xalq ustalari tomonidan yaratilgan haykallar; uchinchisiga esa, buyurtmachilarga muallif sifatida o’z nomlarini sir tutgan shaxslar tomonidan bajarilgan haykallar.

Shuningdek, XX asr ikkinchi yarmidan boshlangan haykaltaroshlikdagi rivojlanish omillari E. Xo’jayeva ma’lumotlarida ham o’z aksini topgan. Masalan, olima 1960-yillarda Rossiya badiiy akademiyasini tamomlagan haykaltaroshlar hisobiga o’ziga xos rivojlanish davri boshlanganligini, o’sha davr portretlarida tasvirlanuvchining ichki dunyosini emas, balki jamoa ishlariga ko’proq yoritilganini e’tirof etgan. Uning ta’kidlashicha, ko’p millatli xalqlar san’ati va jahon plastikasi tajribalariga ergashish ta’sirida 1980-yillarda O’zbekiston portret plastikasida yangi bosqich vujudga keldi. Shu yillarda yaratilgan portretlarda obrazlilikning man’aviy chuqurligi va murakkabligi ortdi.

Zamonaviy o’zbek haykaltaroshlik san’ati xususida tadqiqotlar vaqtli matbuot va jurnallarda e’lon qilingan maqolalardan iborat bo’lgani holda D. Po’latovning

“O’zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari”⁹ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi muhim manba vazifasini bajaradi. Bu dissertatsiyasada asosan dastgohli va mahobatli haykaltaroshlik namunalari haqida va ularning tahlili tog’risida so’z yuritiladi.

2001-yili olimlar tomonidan bajarilgan “O’zbekiston san’ati”¹⁰ (1991-2001-yillar) nomli barcha san’at jabhalariga bag’ishlangan kitobda haykaltaroshlik ham ilk bor kengroq yoritildi. Biroq, kitobning janr talablariga ko’ra ijodiy jarayon masalalari qisman e’lon qilindi. Xususan, bu davrda yaratilgan “Alisher Navoiy”, “Amir Temur”, “Mirzo Ulug’bek”, “Mirzo Bobur”, “Al-Farg’oniy”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Alpomish” kabi eng yirik mahobatli haykallarning badiiy ifodasi, g’oyaviy mazmuni yoritib o’tilgan.

Yuqorida keltirib o’tilgan adabiyotlarda, Ilhom Jabborov ijodiga tadqiqot talabi doirasida murojaat qilinib, alohida obyekt sifatida o’rganilmagan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi. O’zbekiston zamonaviy haykaltaroshligida Ilhom Jabborov ijodining rivoji, uning o’zbek haykaltaroshlik san’ati tamoyillarini belgilashdagi ahamiyatini o’rganish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari.

- XX asr O’zbekiston haykaltaroshligini tadqiq etish;
- XX asr ikkinchi yarmi haykaltaroshligi rivojini o’rganib chiqish;
- Haykaltarosh Ilhom Jabborovning ilk ijodiy shakllanish davrini o’rganib chiqish;
- O’zbekiston mustaqillik yillari haykaltaroshlik san’atida Ilhom Jabborov ijodining o’ziga xos rivojlanish xususiyatlarini yoritish;
- Ilhom Jabborov ijodida tarixiy shaxslar obrazining yoritilish xususiyatlarini o’rganish;

⁹ D. Po’latov.O’zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari: San’atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent, 2007 – 153 b.

¹⁰ O’zbekiston san’ati. T. 2001.

- O'zbekiston xalq rassomi Ilhom Jabborov ijodiga mansub mahobatli asarlarni tahlil qilish.

Malakaviy bitiruv ishi obyekti va predmeti. Haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodi tadqiqot obyektidir. Ilhom Jabborovning ijodiy asarlari bitiruv ishi predmeti hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishi metodlari. O'zbekiston tasviri san'ati nazariyotida shakllangan tarixiy-qiyosiy va tahliliy uslublarga tayanib, Ilhom Jabborov ijodini hamda mavjud manbalarga milliy mafkura mezoniga mos ravishda san'atshunoslik nuqtai nazaridan o'rghanish, ijodkor bilan muloqot olib borish, ulardan maqsadli foydalanish kabilar tadqiqot metodlarini belgilaydi.

Malakaviy bitiruv ishi strukturasi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Malakaviy bitiruv ishiga Ilhom Jabborov asarlaridan namunalar ilova qilinadi. Umumiy hajmi 77 bet.

I. BOB. XX ASR O'ZBEKISTON HAYKALTAROSHLIGIDAGI TENDENSIYALAR

1.1. XX asr ikkinchi yarmi O'zbekiston haykaltaroshligi

Haykaltaroshlik 1990-yillarga qadar o'zbek badiiy madaniyatining yangi jabhalaridan biri sifatida shakllanib, endilikda xalqchil ravishda rivojlanib borayotgan noan'anaviy san'at turlaridan hisoblanadi. U XIX asr oxirlaridan kirib kelganiga qaramay, uzoq muddatgacha rivojlanish bosqichiga erisha olmagan. Mahalliy sharoitga moslashib, mamlakatimiz hududida shakllanishi 1950-yillar o'talarigacha davom etgan. R. X. Taktashning fikricha: "1920-yillarda mahobatli va dastgohli haykaltaroshlikning rivojlanishi juda sust kechgan, maqtovga arziydigan asarlar deyarli bo'limgan. Rassomchilik badiiy ta'lim maskanida yuqori malakali yosh haykaltaroshlarni tayyorlash masalasi yetarli darajada bo'limgani uchun uzoq vaqtgacha tajribali haykaltaroshlar yetishib chiqmagan".¹¹

O'zbekistonda XX asr boshlaridagina haykaltaroshlikning relyef turi asta sekin ko'zga tashlana boshladi. 1918-yilda mamlakatda rassomlik mактабининг ochilishi bilan tasviriy san'atning barcha sohalari rivojlandi. Jumladan, haykaltaroshlik ham, asta-sekinlik bilan odimlay boshladi. Rassomlik texnikumlarida yosh haykaltaroshlarni tayyorlash yetaricha professional darajada emas edi. Ancha vaqtgacha malakali haykaltaroshlarning yetishmasligi sezildi. Bog'-hiyobon va bezakli haykaltaroshlik ham yaxshi rivojlanmagan. 1933-yilda o'tkazilgan respublika badiiy ko'rgazmasida zamondoshlar portretlari qo'yildi: O. Korjinskaya, Rusakova, Sereteli ishlari lekin ulardan hech qaysisi 1934-yilda Moskvada ochilgan O'zbekiston san'atiga bag'ishlangan ko'rgazmada qo'yilmadi. Haykaltaroshlik hatto 1930-yillarda ham respublika tasviriy san'atining eng sust bo'lagi edi. Birorta ham milliy haykaltarosh yetishib chiqmadi, yog'ochda, marmarda, bronzada ishlangan biron ta

¹¹D. Po'latov. O'zbekiston zamонави haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 17-b

asar bo’lmadi.¹² 1930-yillarning o’rtalarida O’zbekistonda ijodiy faol va maqsadga intilgan haykaltaroshlar guruhi bor edi. Bu guruhga N. Kudryavseva, O. Korjinskaya, O. Rusakova, G. Massons (Minasyan), N. Krasovskiylar kirgan. Keyinroq ularga Leningradda ta’lim olgan Y. Kuchis qo’shilgan. Bundan tashqari, Rossiyadan yuborilgan V. Simonov, B. Ingal, D. Shvards, A. Lavinskiylar bilan ijodiy muloqotning boshlanishi soha uchun foydali bo’lgan. Biroq, 1940-yillar ohirigacha ijod qilgan haykaltaroshlar orasida mahalliy avlodning borligi yoki tasviriyl san’at miqyosida faol rivojlanganini tasdiqlovchi tavsiotlar uchramaydi. “XX asrning birinchi yarmidan O’zbekistonda bir necha haykaltaroshlar ijod qilgan bo’lsa-da, jiddiy maktabi hali shakllanmagan edi” degan fikr ham shundan dalolat beradi. Bu yillarda ishlangan haykallar to’g’risida ma’lumot xira va uzuq-uzuq edi. O’sha davrdan saqlanib qolgan ko’rgazmalar kataloglarida haykaltaroshlik namunalari ko’rsatilmagan, gazetada chiqqan kam sonli fotosuratlar eslab o’tilgan ishlar haqida aniq tasavvur berolmagan.

N. Kudryavseva ishlaridan eng qiziqarlisi Toshkent shahar ijroiya qo’mitasining raisi D. Abidova portreti, “Yosh o’zbek kishisining boshi” va “O’zbek bola” portretlari. Abidova portretida o’zbek ayolining xarakter va xususiyatlari aks ettirilgan eskilik sarqitlariga nafrat, ehtiyotkorlik, qat’iylik, sabrlilik, his-hayajon ularga xos jihatlar edi. Ular o’zlarining tashqi ko’rinishi oddiyligi va soddaligi bilan ajralib turgan. Bu portretlarga qarab, muallif tomoshabinga 1917-yil voqealari bilan ichkaridagi qorong’ulikdan oyoqqa turgan, davlatni boshqarish uchun tayyor bir o’zbek ayolining takrorlanmas aniq xislatlarini yetkazib bergenini sezamiz. Abidova yuzida va qo’llarining harakatida suhbatdoshlariga bo’lgan e’tibor va diqqat ko’rinadi. D. Abidova portreti - O’zbekiston haykaltaroshligidagi yangi o’zbek ayoli obrazining muvaffaqiyatli tasvirlanishi edi. Kudryavseva o’zining a’lo darajadagi portretchi-haykaltaroshligini gipsli byust “Yosh o’zbek kishisining boshi” da namoyon etdi. Noma’lum yigitning jiddiy, qahrli yuz ifodasi hali katta kuchga ega

¹² Искусство советского Узбекистана. 1917 – 1972. М.: 1976. 69 - б

ekanligini, kuch-quvvatga to'laligini bildiradi. Bu asarni ko'ra turib odamning jonli nafas olayotganini xis qilgandek bo'lasiz. "O'zbek bola" bezakli haykali esa tinch-mushohadali ko'rinishi, chiziqlar ritmi, shakllar plastikasi bilan esda qoladi.

Kudryavseva ishlarida to'xtalishning sababi, 1930-yillarning o'rtalarida O'zbekiston haykaltaroshlarining professional malakalari sust edi. Bog'lar va korxonalar uchun yaratilgan haykallar G. Massons, O. Korjinskaya, O. Rusakova, N. Krasovskiylar tomonidan ishlangan, ammo ular ko'pga chidamagan, gipsdan qilingan, ishlanishi bo'yicha hunarmandlarnikidek bo'lgan. Biroq yuqori malakali haykaltaroshlarning ishlari ham shunday edi. Masalan, N. Kudryavsevaning, Y. Kuchisning, Y. Strazdinning yo'qolgan ishlari.

1937-1938-yillardagi respublika ko'rgazmalaridagi haykallar juda kam joy egallagan. Faqat, 1930-yillarning oxiriga kelib, O'zbekistonda xalq ta'limi va madaniyatining o'sishi bilan institut, klublar, maktablarning qurilishi bilan haykaltaroshlar oldiga arxitektura majmulariga bezakli monumental haykallarni qo'shish bilan bog'liq jiddiy masalalar qo'yildi. Bu davrgacha to'plangan tajriba O'zbekistonlik haykaltaroshlarga turli xil jamoat binolarini fasad qismlarini bezashda qatnashishga imkon berdi. 1939-1940-yillarda O. Korjinskaya Toshkentdag'i Nizomiy nomli Davlat pedagogika instituti fasad qismi uchun betondan ishlangan ikkita bezakli guruhni yaratdi. Chap tomondagi syujet mehnat faoliyatiga bag'ishlab ishlangan bo'lsa, o'ng tomondagisi esa ilm-ma'rifatni bildiruvchi syujetdir. 1930-yillarning oxirida Strazdin va A. Ivanov Toshkentdag'i harbiy idora tomonidan qurilgan bino fasadi uchun harbiy chegarachilarining barelyef tasvirini betondan ishslashdi. Shu yilning oxirida Toshshaharloyihada haykaltaroshlik ustaxonalari tashkil etildi, ular birinchi galda qurilayotgan kanallar uchun bezakli haykallar va barelyeflarni ko'plab ishlab chiqarishdi. Bundan tashqariparklar, hiyobonlar, dam olish uylari va sanatoriylar o'sha yillarda gipsli haykallar bilan bezatilgan. Shu yillarda o'z ijodini boshlagan A. Ivanov Katta Farg'ona kanali uchun bir juft figurani yasadi "Quruvchi va quruvchi ayol". Farg'ona kanali qurilayotgan paytda arxitektura

va haykaltaroshlik sintezi masalalari bo'lmagan. Bezakli haykallar arxitektura majmuidan qat'iy nazar, faqat unga qo'shimcha sifatida yaratildi. Respublika badiiy ko'rgazmasida 1940-yilda dastgohli haykallar qo'yildi: Strazdin "Ketmonchi", Massons Gorkiy portreti, A. Ivanovning "Lenin Razlivda" asarlari. Ular turli xil materiallardan foydalanishgan, (tosh, bronza) ammo gipsdan ishlangan bu asarlar, mavzusining muhimligiga qaramay, mohirligi darajasi bo'yicha bog'-park bezakli haykallaridan yuqori emasdi va hunarmandchilik ishlari darajasidan ham ko'tarilmadi. Qaysidir ma'noda faqat Strazdinning "Ketmonchi" haykalini olish mumkin, unda oddiy va haqiqiy dehqon, paxta dalasi mehnatkashi obrazi yaratilgan.¹³

Urushning so'nggi davrida o'zbek haykaltaroshligida ijodiy kuch va imkoniyatlar to'plandi va 1960-yillarda to'la namoyon bo'ldi. Rangtasvir va grafikadan ancha orqada qolgan haykaltaroshlik bu davrga kelib jadal rivojana boshladi. Haykaltaroshlar qatoriga milliy kadrlar kelib qo'shildi, ular Leningrad, Moskva va Toshkentdag'i oliy badiiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishgan. Urushdan keyingi davrda haykaltaroshlar brigadasi tuzildi, unda Ivanov, Grishenko, Korjinskayalar ijod qilishdi va Toshkent kuranti minorasiga II jahon urushi mavzusida barelyef ishslashdi, ammo bu loyiha kutilgan natijani bermadi.

1949-yilda Toshkentda yangi qurilgan Alisher Navoiy nomli kutubxonaga Toshkent rassomlik bilim yurti o'quvchilari tomonidan Y. Kuchis rahbarligida mashhur yozuvchilarining portretlari ishlangan. Ularni betondan yasashgan va ular qo'pol ko'rinishda bo'lgan. 1954-yilda Ivanov va Grishenko tomonidan Qoradaryo hududidagi Quybishev to'g'onida syujeti bo'yicha ramziy plakatni bildirgan hujjalı talqindagi "Mehnat g'alabasi" katta guruhi ishlangan. Haykaltaroshlarning ijodiy faolligi ayniqsa dastgohli haykaltaroshlikda aks etdi. Ivanov 1950-yillarning boshida mehnat qahramonlari va O'zbekistonning ilg'or paxta teruvchilari portretlarini yaratdi. M. Ubaydullayeva, Z. Mutalova, O. Yo'ldosheva portretlari Toshkentdag'i va butunittifoq ko'rgazmalarida 1950-1951-yillarda namoyish etilgan. Ushbu portretlar

¹³ Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 111-112-113-114-б.

orgali Ivanov o'zining mohir portretchi usta ekanligini ko'rsatdi. Eng yaxshi asarlari qatoriga o'zbek raqqosasi va xoreografi Mukarrama Turg'unboyevning yarimfigura portreti kiradi. Haykaltarosh ushbu portret orqali O'zbekiston ayollarining umumlashgan obrazini ko'rsatadi. Shunday asarlaridan yana biri 1951-yilda yaratilgan "Zveno boshlig'i". Bu asarda kolxozchining tipik, ideallashtirilgan obrazi yaratilgan.

F. Grishenko Dnepropetrovskdagi badiiy bilim yurtida tahlil olgan, urushdan so'nggi dastlabki yillarda yog'ochda ishlagan (Pushkin, Mirzo Ulug'bek va Hamid Olimjon asari qahramonlari obrazlari). Haykaltarosh o'tkir jonli kompozitsiyalar muallifi, janrchi. Asarlari: "Hunarmand" (1950-yil), "Qushlar do'sti" (1954-yil), rangtasvir janrli kartinalari didaktik yo'nalishi va mavzusi bo'yicha moslashib ketgan. 1950-yillarning birinchi yarmida faol ijod etgan haykaltaroshlardan N. Krimskaya, u o'z o'g'li va qizining portretlarida his-tuyg'uni, o'z ijodiy yondashuvini ko'rsatib bergen. O'zbekistonning dastlabki haykaltaroshlaridan yana biri G. Massons asosan portret janrida ijod qilgan. Bu davrda u Y. Ohunboboyevning marmar byustini, paxtachilik bo'yicha mohir usta X. Tursunqulov portretini va kompozitor P. Glier portretlarini ishlagan.

Yuqorida ta'kidlangan, plastik san'atdagi yutuqlar dastgohli va mahobatli haykaltaroshlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilib turgan bir qator kamchiliklarni yengib o'tishda o'ziga xos asos bo'ldi. 1960-yillarda ham mahobatli haykallar gipsda va betonda ishlangan. Ayrim bronza haykallar materiallari Rossiyadan keltirilgan: Toshkentda o'rnatilgan Y. Ohunboboyev, V. V. Quybishev, M. F. Frunze, S. M. Kirovlarning bronzadan ishlangan byustlari. 1963-yilda Toshkentlik komissarlarga bag'ishlangan granitli monumentning haykal qismi D. Ryabichev tomonidan bajarilgan va Toshkentning vokzal oldi maydonida o'rnatilgan.

Dastgohli va janrli haykaltaroshlik badiiy ko'rgazmalar bisoti bo'lib qoldi, ammo u shahar va qishloqlarga keng yoyilmadi. Shunga qaramay, o'zbek

haykaltaroshlarining haykaltaroshlikning oddiy vositalarini yangilashga bo’lgan qiziqishini, zamonaviy g’oyalarni aks ettirishga intilishini ta’kidlash zarur.¹⁴

Sekin asta naturalistik byust va haykallarni yaratish chetga chiqib, hayotni realistik tasvirlashning turli xil shakllari kirib keladi.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan o’zbek haykaltaroshligining kelajagini yaratuvchi yangi bosqich yaqqol ko’rinadi. Ko’rgazmalarda yangi avlod haykaltaroshlari qatnashadilar. M. Musaboyev va K. Salohiddinov. Bu yillarda Ivanov o’z ijodiy faoliyatini yanada oshirib unumli ishladi. 1954-yilgi respublika badiiy ko’rgazmasida unga qarata tanqidlar bo’lgan, jumladan: sxematizmlik, uslublarning takrorlanishi. U yangi materiallarga va yangi plastik yechimga murajaat etdi. 1959-yilda Qardoshlik qabristonida H. Olimjon qabrtoshida o’zbek shoirini buyuk, romantik tarzda talqin etgan. Ammo 1958-yilda Akademik teatr foyesida o’rnatilgan Alisher Navoiyning gipsdan ishlangan haykali obrazida shoir ko’rinishida umumqabul qilgan realizm mavjud, uning prototipi V. Kaydalov tomonidan yaratilgan. Teatr sahnasidan olingen liboslar bu tasavvurni yanada chuqurlashtiradi. Butaforiya o’xshashligi ruhida yaratilgan haykalning (but) sanam yozuviga xos shartliligi uni teatr zali foyesida xalq ustalari tomonidan yaratilgan bezakli alebastrli va tosh panno bilan solishtirganda yaqqol seziladi.

N. Krimskaya Samarqand badiiy bilim yurtida rangtasvir sinfi bo’yicha tahsil olgan, o’z yo’lini 1950-yillar boshida haykaltaroshlikdan boshladi. Uning ilk monumentalist haykaltarosh sifatida yaratgan ishi Toshkent xoreografiya bilim yurti fasadidagi balerina figurasining barelyefi (1957). Figuralar quyuv bosqichidan o’tmasdan sementga o’yib ishlangan, devorga metall ankerlar bilan o’rnatilgan. Balerinalar obrazlarida haykaltarosh klassik raqsning go’zalligini, xoreografik san’atning nafis va plastikligini tasdiqlagan. Balerinalarning parvoz qilayotgandek ko’rinishdagi figuralari bir-biriga qaratilgan va qo’llarida hilpirayotgan sharflari parvoz, fazodagi harakat, gratsiya his-tuyg’usini yaratadi.

¹⁴ Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 224-225-б

Krimskayaning keyingi yirik asari “Tinchlik” haykali, 1959-yilda Moskvada o’tkazilgan o’zbek adabiyoti va san’ati dekadasi kunlari ko’rgazmasidagi haykaltaroshlik bo’limida markaziy o’rinni egallagan. Keyin bu haykal Toshkentdagi g’alaba parkiga o’rnatilgan. Ushbu haykalni “G’alaba” deb nomlanishiga sabab, plastik shakllar harakatida, yengil libos burmalari dinamikasida oldinga intilish mavjud. Bu yerda qadimgi grek haykaliga o’xshashlik seziladi: Nika Samofrakiyskaya. Hayotni, g’ururni tasdiqlash g’oyasi ushbu haykalda gavdalangan va u o’sha davrning ma’naviy yuksalishiga javob beradi.

1961-1962-yillarda Krimskaya Namangandagi “Chortoq” kurorti uchun bir nechta bezakli haykallarni ishladi (“Raqqosa”, “Shifokor bilan bola”, “Uzum ko’targan ayol”, hamda bu yerda “Tinchlik” haykalining dublikati bor). Haykaltarosh bu ishlari orqali ayol gavdasi plastikasini tushunishini ko’rsatib berdi. Shu yillarda V. Muxina va A. Matveyeva tajribasi bilan boyitilgan mayda plastikaga murojaat qildi. Toshkent chinni zavodida shaharlik o’zbek qizlarning chinni texnikasida nafis figuralarini ishladi.

Janrli va portret haykaltaroshligida F. Grishenko faol ish olib bordi. Maishiy janr uning ijodida keyingi davrda ham saqlanib qoldi. U 1950-yillarning birinchi yarmida ko’rgazmalarda qatnashgan. Masalan: “Yosh duradgorlar” (1956), terrakotada bajarilgan kompozitsiya “Shaxsiy qurol” (1960). Oxirgi asarida qariya kommunist, fuqarolar urushi qatnashchisi ikkita pionerga o’zining shaxsiy qilichini ko’rsatayapti. Bu epizodli syujetda avlodlar vorislari g’oyasi ko’rsatilgan. Grishenkoning yana bir janrli asarlaridan biri “Hosil” asaridir. Qariya dehqon bitta harakatda qovunni kesayotgani tasvirlangan, obraz juda milliy va tipik. Kompozitsiya juda ishonchli ishlangan, tabiiy syujet. Grishenkoning portret janrida ishlangan eng yaxshi asari bu keramikadan ishlangan ishchi R. Satbayev portreti (1958), energiyaga to’la “Armaturachi” (1964) asari esa kuchli va ruhlangan obraz. Grishenko inqilobchilarga bag’ishlangan haykal va byustlarni yaratishga ko’p vaqt sarfladi. Bu tajribasi orqasidan rassom-monumentalist bo’lib yetishdi. U farg’onalik A. Kaptсан

bilan birga Shohimardon tog'li qishlog'ida dindorlar va bosmachilar tomonidan tiriklayin yoqib yuborilgan qahramon qizil askarlar haykalini yaratdi. 3 metrlik monument 3ta figurali kompozitsiyadan iborat, ular jasurlikni, inqilob askarlarining internatsional inoqligini, mardonavorlikni gavdalantiradi (Haykal 1965-yilda Farg'ona viloyatining Hamzaobod posyo'lkasida o'rnatilgan). Grishenko haykallariga xos jihat bu to'g'ridan- to'g'rilik va plastik umumiylit. Mohir usta bir joyda to'xtab qolmasdan ijod etishda davom etdi. Uning iste'dodi fikrning o'ylab qilinganida, kuzatuvchanligida, u ko'pqirrali hayotdan ilhom olgan. U Toshkent rassomlik badiiy bilim yurtida dars bergan. Uning shogirdlari: M. Musaboyev, D. Ro'ziboyev, A. Toirov, X. Xusniddinxo'jayev, K. Salohiddinov. Ular orasidan va milliy haykaltaroshlar orasidan va boshqa milliy haykaltaroshlardan eng faol ishlaganlari Muxtor Musaboyev, Damir Ro'ziboyev, Ahmad Shoymurodov va Agulbek Toirovlari edi.

Muxtor Musaboyev Toshkent badiiy bilim yurtini tamomladi va Teatr rassomlik institutida o'qishni davom ettirdi. Uning dastlabki mashhur ishlarida "Cho'pon" (1957) va "Mirob" (1958) O'zbekiston xalqi vakillari obrazini yaratishga intilish ko'rindi. Haykaltarosh ma'lum naturadan ilhom oladi, bu ayniqsa birinchi asarida seziladi, ya'ni natura bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa, garmonik va umumi yechimi bo'yicha ikkinchi asarida seziladi. Respublikaning 40 yilligiga bag'ishlangan yubiley ko'rgazmada Musaboyev o'zining "Xalq ustasi" barelyefi bilan qatnashdi. Bu xalq ustasining yorqin obrazi, u Xiva uslubida ustunni ganch bilan bezayapti. Afsuski, muallif o'z fikrini oxiriga yetkaza olmadidi, barelyef gipsda qoldi, yog'ochda ishlashga mo'ljallangan edi. M. Musaboyevning eng yaxshi ishlaridan biri "Rubobchi qiz" asaridir. Bu yerda u klassik aniq, plastik shakllarning akademik tugallanganlikka jalg'etishi asosida milliy xarakterdag'i obrazlarni yaratishga intilishi namoyon bo'ldi. 1958-yilda Mirzo Ulug'bek haykali uchun Butunittoq konkursi hay'ati M. Musaboyevga va arxitektor G. Godlinga ikkinchi darajali diplomni topshirdi. Mirzo

Ulug'bek monumenti 1970-yilda Samarqandga o'rnatilgan. Haykaltarosh Mirzo Ulug'bekning milliy xarakterini tarixiy aniqlikda ochib bergen.¹⁵

Portret janridagi mohir haykaltarosh samarqandlik A. Shoymurodovning ijodi ham alohida e'tiborga ega. U Moskva oliv sanoat bilim yurtini tamomlagan va haykaltarosh kasbini egallagan. U hali o'qishni tugatmasdan burun haykaltaroshlik bo'yicha katta tajriba to'plab ulgurgan edi. Institutda unga mashhur haykaltarosh, professor Matvey Genrixovich Manizer ustozlik qilib, mahorat bilan ishslash sir-sinoatlarini o'rgatdi. Mazkur maktab uni monir ijodkor sifatida kamol topishida muhim o'rinnegi egalladi. Tahsil olayotgan davridan boshlab milliy mavzular, tarixiy shaxslarga alohida e'tibor bera boshlagan Ahmad Shaymurodov butun ijodi davomida shu yo'nalishga sodiq qolib, bu borada ko'plab asarlar yaratdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy obrazini yaratish uning ijodida juda katta ahamiyatga egadir. U buyuk alloma siy whole in dastlab ikkinchi kursda o'qiyotgan davrda yaratgan. Ustozi Manizer tomonidan a'lo baholangan bu asar hayolan yaratilgan badiiy to'qima bo'lishiga qaramay, obraz o'ziga xos ulug'vor qiyofada gavdalantirilgan.

O'zbekiston haykaltaroshlari bir necha bor Navoiy obraziga murojaat etganlar, biroq, A. Shaymurodov yaratgan obraz hozirga qadar ijobiyligi taassurot qoldirib kelmoqda. Chunki, haykaltarosh alloma dunyosini tushunishga ko'p marotaba uringan, har galgi faoliyatida komil shaxs siy whole in sayqal topib, mumtoz ko'rinishga kirib borgan. Bular orasida atoqli olim Hamid Sulaymon tavsiyasiga ko'ra mashhur musavvir Mahmud Muzahhib asari asosida ishlangani e'tiborlidir. U Navoiyning mo'jaz kitobot san'atida tasvirlangan qiyofasini haykaltaroshlikdagi qulaylik – plastik xususiyatlar (nur-soya, hajm va b) yordamida muvffaqiyatli amalga oshirdi. Haykal ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. U hatto Moskvadagi nufuzli ko'rgazmada kumush medal bilan taqdirlandi. Unda allomaning ichki siyrati mohirona talqin etilgan, ayniqsa, yuz tuzilishining nuroniyligi, qosh-ko'zlarining ishqiy ifodaviyligi haykaltarosh

¹⁵Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 226-227- 228-б

tomonidan nafis his etilgan, allomaning muborak boshini biroz quyi solinishi mazmundorlikni yanada oshirgan. Mazkur asar hazrat Navoiy olamini haykaltaroshlik jabhasiga ko'chirish borasida erishilgan e'tiborli natijaning yorqin namunasidir. Asarning ijobiy xislatlarga boyligialbatta obraz ustida muntazam, paydar-pay ishlashining samarasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Haykaltaroshning 1960-yilda yaratilgan "Alisher Navoiy" (2 ta: SamDU va Toshkent qo'lyozmalar instituti muzeyida, marmar), "Talaba qiz" (gips), "Maryam" (beton), "Ishchi" (keramika), "Usta" (keramika), "Jarroh" kabi portretlari ham rus realistik yo'naliшини milliy sayqallangan namunalaridan hisoblanadi. Ahmad Shaymurodov 1965-yilda institutni tamomlab, Samarqandda faoliyat boshlagandan buyon uning ijodi milliy tasviriy san'at rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda. Marmar toshdan portretlar bajarish asnosida qadimgi Rim va Yunon hamda Yevropa Uyg'onish davri ijodkorlarining shu yo'sindagi asarlarini o'z ijodiga tadbiq etishga intilib, ma'lum natijalarni qo'lga kiritdi. Shu boisdan uning tarixiy shaxslar mavzusida ishlangan portretlarida mumtoz badiiy yo'naliш ustuvor o'rин egallaydi. 1971-1972-yillarda Shoymurodovning haykaltaroshlikdagi yetukligi marmardan ishlangan Samarqand qizining portretida ko'rindi: "Arxitektor Dilshoda".¹⁶

A. Tairov asarlari uncha ko'p bo'lmasa ham, ko'zga tashlanadi. U 1965-yilda Toshkent teatr-rassomlik institutini tamomladi. Uning diplom ishi "Yer"-kaftida bahorgi tuproqdan bir siqim ushlab turgan qizil sakar figurasi tasvirlangan, bu janrching a'lo darajada ishlaganidan dalolat beradi. Janrli-psixologik dastgohli haykaltaroshlikka intilish uning boshqa ishlarida ham seziladi. Masalan: "Razvedkachi" (1965).¹⁷

Dastlabki o'zbek haykaltaroshlaridan biri bo'lgan X. Xusnuddinxo'jayevning ijodiy boigrafiyasi juda oddiy. Biroq ijodda nimaga erishgan bo'lsa, hammasini

¹⁶ D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 21-22-b

¹⁷ Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 229-б

haykaltaroshlik san'ati qonuniyatlarini kashf etish yo'lida tinimsiz izlanishlari, mashaqqatli mehnati evaziga qo'lga kiritdi. U menhat faoliyatini juda erta boshladi. Bir necha yillar mobaynida ganch o'ymakorligi bo'yicha usta Shirin Murodov qo'lida shogird bo'lib ishladi. U 1948-yili Benkov nomidagi respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1956-yilda esa Hamza nomidagi san'atshunoslik institutining badiiy ta'mirlash ustaxonasida ta'mirchi bo'lib ishladi. Xusnuddinxo'jayev qadimgi haykaltarosh ustalarning ishlarini ta'mirlash paytida ulardagi plastik yechimlarning sir-asrorlarini anglab yetishda ko'p qiyndi. Shu boisdan u o'zining tasviriy san'atga oid bilimlarini takomillashtirishga ahd qilib, 1966-yili Lenigraddagi I. A. Repin nomidagi Mehnat qizil bayroq ordenli tasviriy san'at, haykaltaroshlik va arxitektura institutining sirtqi bo'limiga o'qishga kirdi. Uni 1972-yili san'atshunos ixtisosi bo'yicha muvaffaqiyatli tamomladi. Haykaltaroshlik sohasidagi izlanishlarida sifat o'zgarishlari paydo bo'ldi. Unda xalqqa yaqin va tushunarli bo'lgan, milliy jihatdan teran obrazlarni yaratish istagi tug'ildi. Respublika ko'rgazmalarida portret asaralari bilan faol ishtirok etdi. Biroq, uning ijodiy faoliyatida monumental yodgorliklar muhim o'rinnegallaydi. Shular orasida Samarqand shahridagi "Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy" haykali shuningdek. II jahon urushida halok bo'lgan gurlanlik jangchilar sharafiga o'rnatilgan monument muvaffaqiyatli chiqqan. Navoiy va Jomiyga yodgorlik haykaltaroshlar V. Lunev va M. S. Bulatov rahbarligidagi bir guruh me'morlarning ijodiy hamkorligida yaratilgan. Bu yodgorlikning kompozitsion va plastik yechimi asosida ikki qardosh xalq – o'zbeklar bilan tojiklar o'rtasidagi azaliy do'stlik g'oyasi yotadi. Agar haykaltaroshning ishlarini xronologik tartibda ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning ijodiy yo'li "O'sma", "To'quvchi" kabi oddiy haykallardan plastik jihatidan ixcham, ammo yorqin obrazli, mazmunan boy "Hamza" haykaligacha bo'lgan yuksalish bilan harakterlanadi. Haykaltarosh Navoiy va Ayniy, Muqimiy va Bobur, Ohunboboyev va Mayakovskiy obrazlarini yaratishda har bir shaxsning yorqin, o'ziga xos va takrorlanmas qiyofasini ifodalaydigan yangi ta'sirli vositalarni yarata olganligini

ko'rishimiz mumkin. Haykaltarosh M. Musaboyev bilan gipsda buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur byustini ham ishlashdi. 1967-yilda "Dorboz" kompozitsiyasini yaratdi.¹⁸

O'zbekistonda ilk bor ko'rsatilgan asarlar bo'yicha A. Ahmedov va G. Xoliqov a'lo darajadagi akademik tayyorgarlik ko'rishdi. A. Ahmedov o'zining "Orzu" (gips 1967-yil), "Zorenka" (gips 1964-yil) nomli asarlari bilan kuchli akademik mahoratni namoyish etdi. Uning ijodi plastik ifodaviylik va anatomik aniqlikka asoslanishi bilan alohida e'tibor tortadi. U zamondoshlari ruhiy kayfiyatini ochishga intilar ekan, avvalo tasvirning realistik aniqligi va garmonik mufassalligiga puxta yondoshdi. Mazkur yo'nalishda yog'och bilan ishlangan texnikasini mukammal o'zlashtirdi, shuningdek, boshqa ashyolar bo'yicha ham jiddiy malaka hosil qildi. Haykaltaroshning yog'ochdan ishlangan "Зоренька" haykali 1967-yil Respublika yubiley ko'rgazmasida tomoshabinlar diqqatini tortdi. Keyingi yillarda Ahmedov ko'rgazmalarda ko'proq portretlarni namoyish etdi, u o'z ijodiy faoliyatini pedagogika sohasi bilan birga olib bordi.

Yosh mualliflar orasida A. Boymatov janrli motivlarni ishladi, uning eng yaxshi asarlaridan "Kun yarmi" (1967). U shuningdek, portret janrida ham ish olib bordi. A. Boymatovning "Nasriddin eshak bilan" (terrakota 1961-yil), "Qora-qumda" (gips 1964-yil), "Abu Ali ibn Sino" (yog'och 1967-yil) kabi haykallarida realistik qarashlarni kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston kolxozlari hayotini yaxshi bilgan ijodkor qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ajoyib mehnatkashlari obrazini yaratdi. Yog'ochdan ishlangan cho'pon Murod aka portreti (1970), sug'oruvchi Y. Uzoqov (1971) shular jumlasidandir. A. Boymatovning mahalliy kadrlar tayyorlashdagi faoliyati ayniqsa, diqqatga sazovor bo'lgan. Uning ustozligida 1970-1980-yillarda ko'plab yoshtar Leningrad shahridagi badiiy oliygohda ta'lim olgan.

Yuqorida qayd etilgan rassomlardan tashqari, Toshkentda, Samarqandda, Qo'qonda, Urganchda va boshqa shaharlarda turli millatli yosh haykaltaroshlar

¹⁸ L. Olimxo'jayeva. Haykaltarosh. Sovet O'zbekistoni san'ati. Toshkent- 1981 № 12. 10-11-b

ishlashdi. Jiddiy rassom va pedagog P. Chelishev edi. U 1950-yillar oxiridan zamonaviy va milliy obrazlar bo'yicha e'tiborga sazovor portretlar bajardi. Shu o'rinda uning "Bolakay" (gips 1959-yil), "Alpinistka" (gips 1962-yil), "Alisher Navoiy" (gips 1961-1964-yillar) kabi byustlarini misol keltirish mumkin. Haykaltarosh tomonidan yaratilgan Alisher Navoiy monumenti Kattaqo'rg'on tumanida o'rnatilgan.

Badiiy ko'rgazmalarining faol ishtirokchisi Y. Shapiro yangi, muhim mavzularni ko'targan va umumlashgan monumental yechimni topa olgan. "Tamtam" (bronza 1962)- milliy cholg'u asbobida kuy chalayotgan afrikalikning ifodali obrazi. Shapironing eng yaxshi ishlaridan "Ketayotgan" haykali (1967-yil gips). Bu asarda kommunist oddiy askar kiyimida, huddi uzoq maqsadni ko'rayotgandek holatda tasvirlangan. Uning ko'rinishida Sovet hukumatining dastlabki yillari, xalqning urush va vayronagarchiliklar oqibatini yengib o'tishdagi qahramonliklari aks ettirilgan. Keyingi yillarda Shapiro davlat buyurtmasi ustida qattiq ishladi - Hindiston prezidenti Lal Bahodir Shastri, u Toshkentda vafot etgan. Haykaltarosh Shastri obrazida insonparvarlik, demokratizmga xos xarakterni ochib bergen.

Haykaltarosh A.N. Ivanovning o'g'illari Pavel va Mark 1960-yillarning birinchi yarmida ijodda bo'lishdi. Pavel Ivanovning ijodi mavzularining kengligi, loy, metall, tosh, keramika bilan qo'rmasdan ishlashi bilan ajralib turadi. Bu rassomning qiziqishlari monumental-bezakli haykaltaroshlikda yoyilgan. Uning asarlari: "Dalalar qirolichasi" kompozitsiyasi 1963-yil, "Tongni qarshilash" 1964-yil, misdan ishlangan triptix "Fazo" 1965-yil va psixologik portret "Qiz boshi" 1960-yil. Metall, yog'ochning rang va fakturalari zargarlikka xos mohirlik bilan ishlangan, hatto devoriy bezakli mayda plastikalargacha aniq ishlangan. Haykaltarosh ishlarida hajm, rang, faktura va tekstura yaxlit, ular tabiiy materialning go'zalligida gavdalangan.

Pavel Ivanovning eng muhim monumental asarlaridan Qo'qondagi Hamza Hakimzoda haykali (R. Nemirovskiy bilan birga ishlangan 1970). Haykal bronzadan ishlangan. Hamza xalq oldida ma'ruza qilyapti, uning obraziga satirik bo'rttirilgan

figuralar qarshi qo'yilgan. Ular shoir hayotini uzib qo'yan qora kuchlarni tavsiflaydi. Haykalning bunday yechimi keskin munozaraga sabab bo'lgan, chunki muallif monumentga, monumental haykaltaroshlikka zid bo'lgan satirani olib kirgan.

Mark Ivanov ham turli materiallarda ishlagan, u animalist sifatida maydonga chiqqan, ammo juda iste'dodli haykaltarosh. U bezakli haykallar ham ishlagan. Uning eng yaxshi ishlari "Kashtachi qiz" (yog'och 1964), vatan urushi qatnashchisi, jangda ko'zi ko'r bo'lib qolgan M. Makarovning portret haykallari alohida ahloqiy soflik va lirizm bilan to'la.

O'zbekiston monumental va dastgohli haykaltaroshligi rivojiga muhim hissa qo'shgan haykaltaroshlardan yana biri V. Klevantsevdir. U portret janrida va kompozitsiyali keramikada muvaffaqiyatlilik ishladi ("Dugonalar" 1963, "Qo'riq yerlik ayol" 1964). Muallif ayniqsa janrli va loydan bo'rttirib ishlangan haykallarni yaratgan. 1967-yilda muallif Marg'ilon shahri uchun betondan quyilgan aktrisa Nurxon haykalini yaratdi, bu ayol inqilob dushmanlari tomonidan 1920-yillarda o'ldirilgan. Bu haykaldagi figuralarning erkin harakatida, ko'ylakning burmalari dinamik ritmida o'zbek ayolining ozodlikka chiqish g'oyasi gavdalangan. Bu g'oya ayniqsa haykalning profil ko'rinishida qabul qilinadi. Klevantsevning yana bir muhim asario'zbek xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining byustidir (toblangan mis 1972).

O'zbekistonda 1951-yildan Nikos Feodoridis ishlay boshladidi. U Afinadagi rassomlik institutida (1947-1948), keyin Parij rassonlik Akademiyasida (1949) tahsil olgan, Afinadagi gerk keramist ustalaridan ko'p narsalarni o'rgandi. U Mayolning, Rodenning, Despionning ta'sirini o'zida sezdi va aynan O'zbekistonda o'z iste'dodini ko'rsata oldi. Uning eng yaxshi asari "Qo'shiq" 1952-yil bronzadan ishlangan, o'zbek doirachi qizining haykali. Muallif barcha plastik ifodali xususiyatlarni yaxshilab o'ylab ishlagan. Feodoridis lirik portret ustasi sifatida tanildi. ("Qizim portreti", "Gretsiyalik qiz" 1964-yil glazurlangan keramika) va o'tkir psixologik plastikada ishlangan "Ona" haykali 1964-yil gips. 1960-yillarning o'rtalarida Feodoridis Hamza

haykali ustida ish boshladi, uni Toshkentga o'rnatishmoqchi edi. Loyihaning asosiy qismiga nafis ishlangan relyeflar kirgan, ular O'zbekistonda Sovet hukumatining tuzilishi davri voqealarini tasvirlagan. Feodoridis yaratgan keramik bezakli idishlarda bo'yoqlarning uyg'unligi odamni o'ziga jalb etadi, o'zbek tabiiy motivlari va syujetlariga xos.

1960-yillarning ikkinchi yarmi 1970-yillarning boshida o'zbek haykaltaroshlarining jamoasi kengaydi. Toshkentdan tashqari Samarqand, Nukus, Qo'qon, Andijonda haykaltaroshlar faol ijod etishdi. Samarqandda iste'dodli haykaltaroshlardan: N. Bandzeladze, V. Degtyarev, E. Aliyev, A. Djishiashvili. Repin nomli Leningrad institutidan chiqqan R. Avakyan monumental va dastgohli plastikaning muhim vazifalarini ishonchli hal qiladi. 1967-yilda u Kaptсан bilan birga Farg'ona uchun partizanlar haykalini ishladi. Andijonda T. Mahmudov bilan birga vatan urushida halok bo'lgan askarlar haykali ansamblini yaratdi (1968). Farg'onadagi haykal g'oyasi haykalning plastik yechimida, patetik ishora orqali qahramonlar xotirasini yod olishga undaydi, klassik akademik vositalardan qo'llanilgan. Andijondagi haykalda esa figura yaxlitligini tasdiqlovchi hajmlarni kattalashtiruvchi umumiylilikni ko'ramiz.

1972-yilda Toshkentda O'zbekistonning qahramon komsomollariga haykal o'rnatilgan (mualliflar Ahmedov, Kiselev, Y. I. Klenitskiy). Haykalning markaziy figurasi, jangda halok bo'layotgan komsomol obrazi sovet yoshlarining Vatan dushmanlari bilan urushdagi g'alabasini aks ettirgan.

Keyingi yillarda bajarilgan memorial va tarixiy haykallarning, bezakli pannolarning qadr-qimmati arxitektura bilan bog'liqligida. Ular P. Ivanov, M. Musaboyev, A. Ahmedov, R. Avakyan, V. Degtyarevlar tomonidan yaratilgan. Haykallar arxitektor bilan kelishilmasdan, mavjud bo'lgan ansambl va binolarga qo'shimcha ishlangan. Shahar va qishloqlardagi ko'plab haykallar xalqning o'sib kelayotgan estetik didiga javob bermaydi, eskirgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Navoiydag'i yangi qurilishlarning kengayishi bilan, davr haykaltaroshlar,

me'morlar oldiga ijodiy hamkorlik g'oyasini qo'yadi. Aynan u o'zbek monumental, bezakli va dastgohli haykaltaroshligining keying rivojiga yangi yo'llarni ochib beradi.¹⁹

1960-yillardan boshlab O'zbekiston haykaltaroshligida realistik uslub an'analari tobora mukammalashib, badiiy obrazning shaklu shamoyil darajasi ijobiy sifat tomonga siljidi. Tajribali mutaxassislar sonining ko'payishi soha rivoji uchun muhim ijodiy poydevorni vujudga keltirdi. Kuchli maktab asosiga tayanuvchi bu poydevor uni jiddiy san'at sifatida namoyon bo'lishida katta o'rinni egalladi.

1970-1980-yillar ijodiy rivojlanishning muhim bosqichi sifatida izohlanadi. Zero, 1970-yilning o'rtalarida respublikada dastgohli haykaltaroshlik g'oyat faol yo'nalishdagi bosqichni boshidan kechirdi, uning o'ziga xos tomonlari mustaqil rivojlandi. Mazkur bosqich asosiy ikki omil – ijodiy rag'batlantirish va ijodiy kuch-imkoniyatlar doirasining kengayishi ta'sirida yuzaga keldi.

Birinchi: ijodiy rag'batlantiruvchi omillar – sobiq sovet partiyasining XX syezdidan keyin ijtimoiy hayotga yangi rag'bat ruhini olib kirilishi, ijtimoiy rivojlanishning umumiy holatini ko'tarilishi va yangilanishi san'atning barcha turlari, jumladan haykaltaroshlikda ham muhim yangilanish va faollashish imkonini berdi. O'zbek dastgohli haykaltaroshligi ham bu imkoniyatlardan oziqlandi. Ko'plab haykaltaroshlarning ijodiy ustaxona bilan ta'minlanishi ularning imkoniyatini yanada jadallashtirishga zamin bo'ldi. Hatto kun tartibiga haykaltaroshlik sohasiga atab muzeylar tashkil etish tog'risida savollar qo'yila boshlandi. Mazkur masalalarning amaliy yechimi ijodiy rag'batlantiruvchi omil sifatida soha rivojini tezlashtirdi. 1970-yillarda O'zbekiston haykaltaroshligi oldida ijtimoiy hayotning badiiy yechimi bilan bog'liq vazifalar ko'lami kengaydi. Dastgohli haykallarni ijtimoiy hayotga muvofiq ishlatish, muzey va badiiy ko'rgazmalarga xizmat qilishning madaniy doirasi kengaydi. Natijada ko'p sonli ishtirokchilar asosida maxsus ko'rgazmalar o'tkazish

¹⁹Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 230-231-232-б

jiddiy tus oldi. Shubhasiz, bu 1970-1980-yillardagi katta ijodiy kuch-imkoniyatini harakatga keltiruvchi va amaliy foydalanishga turkiberuvchi ruhiy rag'bat o'lar o'q etilishi mumkin.

Ikkinchi” Ijodiy kuch va imkoniyatlar doirasining kengayishi ham soha rivoji uchun zarur omillardan biri edi. Zero, 1970-1980-yillarda juda kuchli ijodiy salohiyat ta'minotiga ega bo'ldi. Malakali haykaltaroshlar tayyorlashga ixtisoslashgan rus badiiy oliygohlarini tamomlagan tajribali yosh kadrlar sonining yanada ko'payishi dastgohli haykaltaroshlikda ijodiy kuchlanishni vujudga keltirdi. Bular A. Parelman (1969), V. Feodorovich (1975), A. Ovsepyan (1976), A. Abdug'aniyev (1980), T. Esonov (1981), R. Qoratoyev (1982), M. Obloqulov (1983), M. Rahmonberdiyev (1984), A. Xotamov (1985) lardan iborat bo'lib, soha rivojida jiddiy ta'sir ko'rsatdilar.

Dastgohli haykaltaroshlikning oldingi davridagi mavzuli xususiyatlari endilikda murakkab kompozitsion tus ola boshladi. Pirovardida ijodiy jarayonda an'anaviy uslublardan farq qiluvchi yangi yondashuvlar yetakchi o'ringa ko'tarildi. Nafaqat Rossiya maktabi namoyondalari, balki Toshkent badiiy ta'lim muassasalarini tamomlagan Damir Ro'ziboyev, Ulug'bek Mardihev, To'lagan Tojixo'jayev, Ilhom Jabborovlar bu jarayon an'analarini puxta o'zlashtirdilar.²⁰

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atida ko'p asrlik noyob badiiy, milliy hamda xorijiy an'analar mujassamdir. Uni bugungi kunda turli avlod rassomlari har xil ijodiy uslubiy yo'naliishlarda akademik realizm, avangard, postmodernizmda namoyish etmoqdalar. Ba'zi rassomlar mahobatli haykaltaroshlikda ishslashni ma'qul ko'radilar, boshqalari samarali izlanishlarini dastgohli plastikada uyg'unlashtiradilar. O'zbekiston haykaltaroshligi mustaqillikning 15 yili davomida” ko'rgazmasi ijodning bu turi rivojidagi asosiy yo'naliish va muammolarni aniqlashga, zamonaviy holatiga baho berishga mazkur davr ijodiy izlanishining o'ziga xos badiiy dunyoqarashi va

²⁰ D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 23-25-b

rivojini tushunishga imkoniyat beradi. Mustaqillik davri ma'naviy qadriyatlarning yangi tizimini olib kirdi, bosh maqsad etib, milliy o'ziga xoslikni tiklash, milliy tarixiy-madaniy merosi anglash, san'atda milliy o'ziga xoslikni izlash olindi, natijada bular bevosita mahobatli haykaltaroshlik sohasida namoyon bo'ldi. Ayni paytda, globallashuv davri xalqaro madaniy aloqalarning kengayishi, o'zbek rassomlarining dunyo badiiy merosi bilan haykaltaroshlarga ijodiy izlanishlarning keng imkoniyatlarini ochdi. Jadallik bilan olib borilayotgan shahar qurilishlari, shahar fazoviyligini farovonlashtirish zaruriyati san'atning ko'pgina turlarini uyg'unlashtiruvchi yangi me'moriy yechimlar izlash, dizayn sohasining rivojiga olib keldi, hamda haykaltaroshlikning zaruratini ya'ni zarur badiiy element ekanligini ko'rsatdi. Fazoviylik, hajm, original g'oya, mavjud haykalning konstruktivligi, postmodernistik san'atning estetikasi cho'qqisiga zamonaviy o'zbek rassomlarini qamrab olgan holda, olib chiqadi.

Milliy tarixiy o'tmishimizni qahramonlashtirish Ilhom Jabborov, Jaloliddin Mirtojiyev, To'lagan Tojixo'jayev, Azamat Xatamovlar ijodlarida yangi mavzuli diapazonlar ochib berdi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Al- Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Muhammad Bobur haykallari, ideallashtirilgan obrazlar, ulug'lashtirilgan shaxslar O'zbekistonning turli shaharlarini bugungi kunda o'zbek xalqining tarixiy merosi sifatida bezab turibdi. O'zbekistonning mahobatli haykaltaroshligi o'zbek xalqining mashhur shaxslarini tiklash va ulug'lashtirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Shunday bo'lsada, ijodiy yondashuvlar, yangi plastik izlanuvchanlik, ijodiy yechimlar borasida haykaltaroshlarimizga ifodaviy erkinlikni, noan'anaviy yechimlar izlanuvida faol bo'lishlarini hoxlardik. Jo'ldasbek Quttimurotov, Azamat Xatamov, To'lagan To'jixo'jayev, Muxtor Abakulov, Bekmurod Hakimov, Risdavlat Abdug'aniyevlarning ijodiy izlanishlarida nafis sharq san'atining nazmiy uslubiyati sezildi. Ularning ishlari Sharq go'zallari va donishmandlariga bag'ishlanadi hamda inson ruhining turli psixologik holatlarida: meditatsiya, yaratuvchanlik, ruhiy yuksalish, oshiqlik, ruhiy hayqiriq va boshqalarni

ko'rsatadi. Ko'chmanchilar madaniyatining betakror ma'naviyatini qoraqalpoq san'atining boy tarixiy an'analari ekologik fojea uchun samimiylar jonkuyarliliklari Jo'lidasbek Quttimuradov ijodlarida ko'rindi.

Mustaqillik yillarida milliy merosni anglash avangard uslubida, postmodernistik yo'naliishlarda tasvirlash Saydolim Sharipov ijodiga xosdir. Uning ishlarida xattotlik elementlari, islom naqshlari qo'llanilib, falsafiy - dunyoqarashga erishuv va musulmon san'ati konstrukt xos. Ayni paytda ular o'ta zamonaviydir, ular oson o'qiladi va anglanadi, hamda emotsional ta'sirga ega bo'ladi. Plastikaning zamonaviy tilida Yevropa postmoderni uslubida fikrlash hoxishi B. Muxtorov va M. Borodinalarning ijodiy izlanishlariga xos.

Mustaqillik davri haykaltaroshligining o'ziga xos bo'limi dekorativ haykalni tashkil etadi. Haykaltaroshlarning plastik imkoniyatlari kengayishi, rang qo'llanilishi, fazo bilan uyg'unlik hamda yangi intonatsion nyuanslaridan haykalning nazmiyligini boyituvchi bo'rttirishlar istexzolar hisobigadir. Haykallarning mavzulari bugungi kunda o'zida tarixni va zamonaviy syujetlarni mujassamlashtirgan. Shubhasiz, O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining o'z yutuq va muammolari mavjud. Haykaltaroshlik bo'yicha xalqaro simpoziumlarni o'tqazish zarurati, rassomlarimizning dunyo madaniyatiga chiqishi, yosh iste'dodli haykaltaroshlarni tayyorlash, o'qitish tizimini yaxshilash, obrazli - mazmuniy tizim boyish yangi texnologiyalar, undan tashqari haykallarning shahar muhitiga uyg'un tarzda kirib borishi, uning me'morchilik, landshaft va boshqa sohalar bilan uyg'unligi ma'lum bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning zamonaviy haykaltaroshligi o'zining tarixiy davrini, uning ustunligini, imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.²¹

²¹K. Akilova. O'zbekiston haykaltaroshligi 1991-2006. Toshkent - 2006

1.2. Haykaltarosh Ilhom Jabborovning ilk ijodiy shakllanish davri.

O'zbekiston haykaltaroshligiga 1960-1970-yillarda bir qator iste'dodli haykaltaroshlar kirib kela boshladi. Shular orasida Jo'ldosbek Quttimurodov, Damir Ro'ziboyev, Azamat Xotamov, To'lagan Tojixo'jayev, Ilhom Jabborovlar o'z asarlari bilan haykaltaroshlik sohasiga dadil kirib keldilar.

Qoraqalpog'istonda faoliyatini boshlagan Jo'ldasbek Quttimurodov havaskorlikdan mohir ijodkor darajasiga yuksaldi. U o'rta maktabda o'qib yurgan kezlarida rasm chizish bo'yicha ilk saboqni devoriy gazetalarni bezash jarayonida oladi. 1956-yili Jo'ldasbek Toshkentga keladi va Respublika rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bo'lajak haykaltarosh rangtasvir bo'limini muvaffaqiyat bilan tamomlaydi. U pedagog A. P. Lunev rahbarligida "Uch ilhom" deb nomlangan diplom ishi yaratadi. Oppoq harir kiyimdag'i uch qiz rangtasvir, she'riyat va musiqani ramziy ma'noda ifoda qiladi. She'riyat va musiqa o'tirgan, rangtasvir esa bor bo'yi bilan tik turgan holda aks ettirilgan. J. Quttimurodov bir necha muddat Toshkent teatr va rassomlik institutining rangtasvir, haykaltaroshlik va kulolchilik bo'limida tahsil oldi, so'ngra Nukusga qaytdi, mahalliy nashriyotda badiiy redaktor bo'lib ishladi. Jo'ldasbek rangtasvir bo'yicha o'z kuchini sinab ko'radi, qoraqalpoq qizlarining turkum portretlarini yaratadi. U yaratgan qizlar portretida boqiy go'zallikning chuqur lirik ifodasini his etish mumkin. Ilk muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, Jo'ldasbek haykalataroshlik sari betinim intilaveradi. "Navjuvon boshi" deb atalgan ixchamgina yog'och haykal Toshkent ko'rgazmasiga jo'natilganda O'zbekiston Davlat San'at muzeyi uni sotib oladi. Bu yutuq haykaltaroshning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi.

Jo'ldasbek Qoraqalpog'iston xalq ustaalariga shogird tushadi, u bir necha muddat usta Said Niyoz xonadonida yashab, musiqa asboblari tayyorlash sirlarini o'rganadi. J. Quttimurodovning san'atga munosabati estetik didi ideali uning ilk asarlaridayoq namoyon bo'lgandi. U yaratgan qizlar va ayollar obrazlarida ramziy

ma’no mujassamlashgan bo’lib, bu obrazlar mahalli tabiat manzaralari bilan uyg’unlashib ketgan (“Amudaryo”, “Shamol” asarlari). Uning tassavurini epik hikoyatlardagi qaharmonlar hayajonga soladi. U yog’ochdan o’yib ishlagan qizlarning boshlari hamisha individual. Haykaltarosh har safar chehralar uyg’unligini namoyish etish uchun yangicha usul qidiradi. Uning ilk rantasvir va grafik asarlari ham uslub yo’nalishi jihatidan yaxlit, poetik nuqtai nazardan haykallaridagi kabi ulug’vor va soddadir. U ancha vaqt yog’och o’ymakorligi bilan shug’ullandi. Unga xomashyo sifatida ildizlarigacha qo’porib olingan yaxlit daraxtlar xizmat qildi. Haykallar yaratish jarayonida u eng asosiy narsani aniq va ravshan ifodalashga intiladi. U inson boshi va yuzlarini, bosh kiyimlari va sochlarni, qizlarning obrazlarida esa kiyim bezaklari va taqinchoqlarni nihoyatda aniq aks ettiradi. 1960-yillarning oxirlarida J. Quttimurodov ko’pchilikni befarq qoldirmaydigan ararlar yaratdi. “Orzu” yoki “Qiz bolaning boshi” ana shunday asarlaridandir. Mazkur haykalda haykaltarosh qahramon ko’zlarini yaxlit kesma tarzda, chuqur o’yimtiq holatda ifodalaydi. Qizning katta va biroz g’amgin ko’zlari tubsiz ko’rinishi hamda ma’nodorligi bilan tomoshabinni hayratga soladi. Qadimda haykaltaroshlar qahramon ko’z qorachiqlarini qimmatbaho tosh qardash niyatida chuqurroq olishardi. Quttimurodov qimmatbaho toshlar qadamagan holda ko’z qorachiqlarining ta’sirli ifodasini berishga muvaffaq bo’ldi.

1970-yili haykaltarosh “Nihol” nomli asarini nihoyasiga yetkazadi. Bu – Quttimurodov ijodida yalang’och ayol qiyofasini berishda ilk ijodiy tajriba edi. Haykal o’zining mutanosibligi, chehrasi, gullab-yashnagan yoshlik onlarining betakrorligini to’la-to’kis ko’rsata olishi bilan e’tiborni jalb qiladi. Obraz go’yo osmon sari, quyosh sari, nur sari talpinayotgandek tuyuladi. Haykaltarosh ayollarning bundan keyin yaratgan yalang’och obrazlarida ham go’zallik va ulug’vorlik tuyg’usini uyg’unlikda talqin etadi. 1970-yillarda haykaltarosh katta muvaffaqiyatga erishdi, u xalq e’tiboriga sazovor bo’ldi. San’atga fidoyilik va jamoatchilikning hurmati undan talabchanlik bilan ijodiy izlanishlarni muttasil davom ettirishni taqozo etardi. Ana shu yillar mobaynida Quttimurodov san’at haqidagi tushunchalarini muttasil kengaytirib

bordi: Toshkent, Samarqand, Moskva, Boku, Ufa shaharlarida bo'ldi, o'ziga yaqin san'atkorlar bilan bo'lган muloqlarda uning badiiy-estetik qarashlari boyidi.

1960-1970-yillarda qoraqalpoq haykaltaroshligi ma'lum ma'noda yuksaklikka ko'tarildi. Quttimurodov bilan birga D. Tureniyozov, A. Otaboyev kabi yorqin iste'dodli haykaltaroshlar qizg'in ijodiy ish olib bordilar. Tasvirning ta'sirli chiqishiga erishish uchun Tureniyozov keskin bo'rttirishlardan izchil foydalanadi. Bunday xususiyat Quttimurodov ijodi uchun xos emas. Uning asosiy maqsadi qismlar va butunlikning o'zaro mutanosibligi va uyg'unligini ta'minlash orqali go'zali kka erishmoqdan iborat. Yog'och o'ymakorligi bo'yicha Quttimurodov boshqalardan o'zining doimiy qo'llanadigan usullari bilan farqlanib turadi. Uning ijodida uslubiy yo'nalishi jihatidan bir-birini inkor etuvchi asarlar uchramaydi. Haykaltarosh ayniqsa yuz va bosh tuzilishiga alohida e'tibor beradi. Obrazning ana shu muhim qismlarini u iskana bilan kesibgina qolmay, sinchkovlik bilan sayqallaydi, ularga jilo beradi. Haykalning orqa tomonini ko'pincha detallashtirib o'tirmaydi, umuman ishlov berib qo'ya qoladi.

J. Quttimurodovni qizlar va ayollar go'zalligi kuychisi deyish mumkin. Erkak kishilar obrazi uning ijodida ayollar obraziga nisbatan kam uchraydi. ("Arslon", "Ikki shoxli Iskandar", "Uyg'onish" asaridagi er kishining qudratli gavdasi). Quttimurodov naturadan ishlamaydi. Lekin o'zining sevimli ustozlaridan biri Chingiz Axmarovga o'xshab, naturaning o'zini doimiy kuzatadi va o'rganadi. Ana shu kuzatishlar uning asarlarida o'z samaraasini beradi.²²

Yana bir is'tedodli o'zbek haykaltaroshining ijodi ham bizda katta qiziqish uyg'otadi. Bu Damir Ro'ziboyevdir. U1960-yillar boshida badiiy ko'rgazmalarda mashhur bo'lган. Haykaltarosh o'z ijodida bir tomondan milliylikka qiziqqan, ikkinchi tomondan zamonaviy jahon plastikasiga e'tibor qilgan, har bir asarni vazifasi bo'yicha aniq tushunib yetgan, hajm, plastika va ranglar sintezi kabi. Bu haykaltarosh

²² R. Taktash. Jo'ldosbek Quttimurodov. Sovet O'zbekistoni san'ati. Тошкент – 1982. № 8. 31-32-b

yuqorida nomlari tilga olingan ikkala ijodkorga uslubi jihatidan juda yaqin. Plastik san'atning o'ziga xos vositalarini bilish mumkinligini tushungan Damir Ro'ziboyev A. Matveyev maktabi tizimiga murojaat qiladi va uni o'zi yoqtirgan haykaltaroshlardan biri deb hisoblaydi. Boshqa faol ijod etgan yosh haykaltaroshlar kabi u asl materiallarda asar yaratishga intiladi: yog'och, tosh, keramika va shu ma'noda, Pavel va Mark Ivanovlar, V. Klevansev, Y. Shapiro, A. Shoymurodovlar bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek haykaltaroshligi avangardi yo'lidan ketadi. Ro'ziboyevning mashhur asari tol daraxtidan ishlangan "Saida" (1962) byusti O'zbekiston Davlat san'at muzeysidan joy olgan. Tovushlarni tinglab, tabiat ranglarini kuzatayotgandek ko'rinishdagi yosh qizning turk slavyanlarga xos yuz ko'rinishi haykaltarosh tomonidan yaxlitlik va detallarni chuqur his qilgan holda, to'la ilhomlanib yaratilgan. Damir Ro'ziboyev yaratgan portretlarda xarakterni to'g'ri his etish va mohirona plastik umumlashuv bor. U rangga juda e'tiborli va sezgir, istalgan materialda ishlab turib undan iloji boricha ko'proq rang va plastika imkoniyatini olishga ko'proq intiladi. Ayrim haykallarda Ro'ziboyev Osiyo san'ati haykaltaroshligining tajribasini ijodiy mushohada qiladi.²³

Haykaltarosh Azamat Xotamov san'atidagi shakl va mazmun O'zbekiston madaniyatining o'tmishi va bugungi kuni bilan chambarchas bog'liq. U san'at olamiga yetuk asarlari bilan kirib keldi. A. Xotamovning eng yaxshi fazilatlaridan biri shundaki, u son-sanoqsiz san'at maktablari va oqimlarining asiri bo'lib qolmadidi. Muntazam va qattiq mehnat bilan, mustaqil ijod yo'llarini izladi. Uning plastik etyudlarida, portretlarida, turli shakllarida mutanosiblikning keskin ritmini va aniqlikni, musiqaviy uyg'unlikning go'zal yechimlarini ko'ramiz. Uning ilk ijodiy bosqichi Surxondaryo vodiysi, uning ajoyib odamlari bilan chambarchas bog'liq. Azamat Xotamov Ko'hitang tog'lari orasidagi qadimiy Poshqurt qishlog'ida tug'ilgan. Qishloq yaqinidagi qadimiy rassomlar qo'li bilan chizilgan Zarautsoy

²³Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М. 228-б

qoyasidagi suratlar yosh haykaltaroshni bee'tibor qoldirmaydi. U loydan turli shakllar yasar, tinimsiz rasm chizar, bularning barisi kelajakdagi asarlariga poydevor bo'ldi.

Leningradda, institutda, uning ikki marotaba shaxsiy ko'rgazmasi uyushtirilgan. Ularda haykaltaroshning ko'p figurali kompozitsiyalari, portretlari, grafik asarlari namoyish etildi. "Cho'pon" asari yosh haykaltaroshning o'ziga xos uslubga ega ekanligidan dalolat berdi. Bu asarda u hayotga tiyrak boqqan, yoshlik zavqi bilan jo'shayotgan yosh yigitning jozibali obrazini yarata olgan. "Onalik" va "Jasorat" asarlari "Surxonning sahiy yeri" ko'rgazmasida namoyish etildi. Ularda personajlarni ng ichki dunyosi plastikaning rangbarang yechimlari orqali ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Umuman kompozitsiyava proporsiyalarning muvozanati, ma'lum bir qiyofaning bir tekis tipiklashuvi, harakatning ravshanligi va shu kabi bir qator xususiyatlar haykaltaroshning ko'pchilik asarlariga xos fazilat deyish mumkin.

Azamat Xotamovning hozirgi va o'tmis qahramonlarining bir-biriga yaqinligi haqidagi plastik fikrlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Kamoliddin Behzod, Umar Xayyom, Ibn Sino, Nodira, Zebiniso, Uvaysiy obrazlari bilan poetic jihatdan izchil bog'langan. Ularni ijodiy muhit sharoiti va vatanga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat bir-biriga bog'lab turadi. "Sharqning donolari" nomli turkum asarida A. Xotamov turli xil san'at vakillari o'rtaсидаги yaqinlikni plastik xususiyatlar orqali ifodalashga intiladi. Uning ko'p asarlaridagi turg'unlik elementi obrazlarni ichki bir harakatdan mahrum qila olmaydi. Safar Jumayev portretida haykalning ustki qismi harakatchan, notekis. Shaklning juda kuchli ranglar tasviri esa asarga hayotiylik baxsh etgan. Nur va soya, shuningdek, tomoshabinning uch o'lchovidagi nuqtai nazarini hisobga olgani uchun ham haykaltarosh traktorchi Safar Ro'ziyev qiyofasida kayfiyat va ichki kechinmalarni aniq bera olgan. Bu asarda vazmin keksalik ham, hayotiy burchini bajarganligidan mammun bo'lgan kishining g'ururlanishi ham yorqin ifoda etilgan.²⁴

²⁴ R. Taktash. Haykaltarosh Azamat Xotamov. Sovet O'zbekistoni san'ati. Toshkent – 1982. № 12. 16-17-b.

Dastgohli haykaltaroshlikning oldingi davridagi mavzuli xususiyatlari endilikda murakkab kompozitsion tus ola boshladi. Pirovardida ijodiy jarayonda an'anaviy uslublardan farq qiluvchi yangi yondashuvlar yetakchi o'ringa ko'tarildi. Nafaqat Rossiya maktabi namoyondalari, balki Toshkent badiiy ta'lim muassasalarini tamomlagan Damir Ro'ziboyev, Ulug'bek Mardihev, To'lagan Tojixo'jayev, Ilhom Jabborovlar bu jarayon an'analarini puxta o'zlashtirdilar.

Haykaltarosh To'lagan Tojixo'jayevning ijodkor sifatida shakllanishi O'zbekiston haykaltaroshligining obraz va syujet asoslari, uslubiy izlanishlari va estetik qarasharlari o'zgargan 1970-yillardagi muhim evrilish jarayonlarida kechdi. O'sha davrda T. Tojixo'jayev bilan birga san'at olamiga birga kirib kelgan yosh avlodning ijodiy intilishlari tufayli haykaltaroshlik bir xillikdan, mafkuraviy qoliplardan ozod bo'la boshladi, yangi badiiy izlanishlar makoniga dadil kirib borildi. T. Tojixo'jayev, N. Karlixanov, S. Karlixanova, U. Mardihev, V. Gambarov singari yosh haykaltaroshlar yetuk haykaltarosh Damir Ro'ziboyev bilan hamkorlikda obrazlarning yangi olamini yaratdilar. Ularning ijodda erishgan plastik yangiliklari etnomadaniy merosning plastik vazifalarini zamonaviy tushunishga asoslangan yangicha yondashuvdan kelib chiqdi. Yangi materiallarning mohirlik bilan qo'llanilishi tufayli haykaltaroshning dekorativ imkoniyatlari boyidi. Endi ular bog'-park dekorativ plastikasi vazifasini bajarib. Shaharning yashil maydonlari, hiyobonlar makonida tassavur etila boshlandi. Milliy maktablar rassomlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishi, o'zbek san'atkorlarining haykaltaroshlik va shahar muhiti muammolari bo'yicha xalqaro forum va simpoziumlar ishida ishtirok etishi 1970-1980-yillar haykaltaroshligi rivojida yetakchi omil bo'ldi. Keng ijodiy muloqot muhitida yashaganligi, yaxshi maktab ko'rganligi hamda iqtidorli bo'lganligi tufayli T. Tojixo'jayev mustaqil ishlashga moslashish bosqichini tez bosib o'tdi. U bezakdor plastikaga qiziqishi tufayli shamotdan "Dedal va Ikar" (1980), "Chavandoz" (1982), o'ziga xos yangicha mavzuda "Tush" (1982), "Umar Hayyom" (1984), "Rangli tushlar" (1989) singari asarlar yaratdi. Ushbu asarlar davrning xil badiiy

tamoyillarini aks ettirish barobarida uslubiy va shakliy imkoniyatlari turlicha materiallardan foydalanishda rassomning olamini talqin etishi qanday shakllanayotganini ko'rsatdi. Ularda shuningdek, haykaltaroshning zamonaviy plastik vazifalarini doim e'tibor bilan o'ziga xos tarzda tushunib kelganligi namoyon bo'lган. Uning dastlabki asarlaridan biri "Kimga tandir?" (1982) asarin shamotdan ishlangan bo'lib, unda ijodkorning o'sha davrdagi izlanishlari aks etgan. Buni rossiyalik taniqli haykaltarosh A. Tsigal ham ta'kidlab: "Yosh rassom Tojixo'jayev O'zbekiston plastikasida rivojlanishi zarur bo'lган yangi xususiyatlarni aks ettirdi" - degan. T. Tojixo'jayev hajman kichik ushbu asarida maishiy mazuga murojaat qilgan va haykaltaroshlikdagi janriylik va bayonchilik yuzasidan o'z tushunchasini ma'lum darajada ohib bergen. Shahar ko'chasi bo'y lab o'zining loydan ishlangan mahsulot-tandirni asta olib ketayotgan tandirsoz erkin syujetda, ixcham kompozitsiyada o'z aksini topgan. Undagi barcha jihatlar tomoshabinni haykal to'g'risidagi avvalgi tassavurlardan xalos qilib, milliy turmush, an'analar va folklor bilan bog'liq voqelikning keng palitrasiga jalb qiladi. Rassom obrazi kompozitsiyaga element, makon sifatida mohirona kiritilganidan ushbu haykal katta sharqona shaharning qandaydir qismi sifatida idrok etiladi va u go'yo haykal bilan birga mavjuddek tuyuladi, uning aynan shu muhitga bog'liqligi hisini uyg'otadi.

"Dilgirlik" (1991) - T. Tojixo'jayevning 1990-yillarda yaratgan muhim asarlaridan biri. Unda go'yo asar yaratilgan murakkab davr, ya'ni barchadan yuz o'girib, faqat o'z o'ylari bilan tanho qolish "kayfiyati" aks ettirilganday tuyuladi. Haykal rangga boy burama shakldagi yaxlit hajm sifatida ishlangan. Uning yumshoq shakli bo'y lab go'yo soyalar sirpanib ketayotgandek tuyuladi. Oquvchan chiziqlar o'zining yolg'izlik olamiga o'rnashibqolgan qahramonning ruhiy holatini aks ettirib, butun shaklni egallab olgan. Ta'kidlash joizki, ushbu asarida T. Tojixo'jayevunga xos bo'lмаган о'згача usullarni izlagan.²⁵

²⁵Ahmedova N. Haykaltarosh anglagan haqiqat. San'at. – Toshkent, 2015. - №1. – 23-27-b

Har qanday iqtidor kabi haykaltaroshlik qobiliyati sinov uchun beriladi. Lekin bu yerda gap nafis shakl yaratish bilan bog'liq jiddiy texnik qo'shimchalar va san'atkorning hamma material bilan ko'rinas "kurash" olib borishi haqidagina emas. Bu yerda doim ham aytilmaydigan, lekin ko'pincha hayolni band qilib turadigan yana nimadir bor. Haqiqiy ijodkor doimo izlanishda bo'ladi. Bu borada u o'zidan oldingi maktablar, uslublar va yo'nalishlarga sinchiklab nazar tashlar ekan, ulardagi eng mumtoz, mukammal va shu bilan birga oddiy chizgilarining sirlarini o'rganishga, tugunlarni yechishga harakat qiladi. Shu intilish va tadqiqiy tahlil etish bilan o'ziga ijodiy yo'l tanlaydi hamda undan sabr-matonat bilan borishga harakat qiladi.

Yuqorida nomlari tilga olingan J. Quttimurodov, D. Ro'ziboyev, A. Xotamov, T. Tojixo'jayev kabi haykaltaroshlar orasidan o'zining yo'nalishi bilan, yaratgan asarlari bilan Ilhom Jabborov alohida ko'zga tashlanadi. Har qanday izlanuvchan ijodkorda bo'lgani singari Ilhom Jabborov ijodida ham "o'zligini", "o'z uslubini" ifodalab turuvchi asarlari talaygina. Tinimsiz mehnat qilayotgan, doimiy ravishda yangi g'oyalar izlayotgan san'atkor haqida maqtovlardan iborat fikr bildirishga ehtiyoj yo'q.

Ilhom Jabborov 1945-yil 30-iyunda Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanining To'qay qishlog'ida tavallud topgan. Ilhom Jabborov o'rta ma'lumotni olgandan so'ng 1961-yili Toshkentdagи badiiy bilim yurtining teatr butaforiyasi bo'limiga o'qishga kiradi. Ma'lumki, tasviriy san'atning markaziy maktablaridan bo'lmish bu bilim yurtida rasm saboqlarining barcha qirralari o'rgatilar edi. Teatr bezakchi rassom bo'lishning murakkab jihatlari mavjudligi sir emas. Bilim yurtida unga taniqli rassom Grishenko ustozlik qilgan. Talabalik yillari Ilhom Jabborov hayoti va ijodida tasviriy san'at asarlarini o'rganishning alohida bir mакtab vazifasini o'tagan. Badiiy bilim yurtini tugatgach, Namangan teatrida ijodiy faoliyatini boshlaydi. Atoqli musavvir O'rol Tansiqboyev ta'kidlaganlaridek, san'atkor bo'lish ulkan baxt ammo uning mashaqqatlari ham bor. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoqi

bo'lg'usi haykaltaroshni 1966-yilda san'at institutiga boshladi. Bu yerda u taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedovdan saboq oldi.

Ma'lumki, haykaltaroshlikni o'rganishda qalamtasvir sirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda olingan ta'lim 1971-yilgacha davom etib, san'at sirlarini o'rganishning keyingi bosqichi ham o'z samarasini bera boshladi. Albatta, ilm va san'atni o'rganish ustozlarning mahoratlariga bog'liq. Ilhom Jabborov bilim yurti va san'at institutida ta'lim olgan yillaridayoq o'zining iqtidori bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham u yaratgan asarlarda rang-baranglik, kompozitsiyalarning boyligi yaqqol ko'zga tashlanadi.²⁶

U tinimsiz ishlaydi, izlanadi. Ustaxona uning haqiqiy uyi. Hatto dam olish kunlari ham bu yerdan haykaltarosh bolg'asining ohista ovozi eshitilib turadi. Ular uchun ish soati yo'q, ular uchun aniq oylik maoshi ham yo'q, ular uchun hammasi yaratilgan asariga bog'liq. Ko'zlangan "ishi" ko'ngildagidek chiqsa, hammasi bir zumda esidan chiqadi, qoladi. Ilhom Jabborov ham bu zahmatli kasbni tanlaganida qalbida hissiyotga to'la orzu-o'ylari jo'sh urganda oddiygina qishloq bolasi edi. Ota-onasi u yoqda tursin, hatto butun bir qishloqda uning bu fikrini ko'pchilik ma'qullamadi. "Yaxshi iqtidorli bola edi, tuzukroq o'qishga kirsa bo'lmasmidi" deyishdi. U esa dilidagi yo'lini tanladi. O'quvchilik davrida o'qigan va yod bo'lib ketgan afsonaviy Farhod qalbi unda cho'g' bo'lib yonayotgan edi. Toshkentdagi teatr va rassomlik san'at institutida o'qishi unga qanot bag'ishladi. Qishloqqa bordimi, u bir joyda o'tira olmaydigan bo'lib qolgandi. Unga har bir daraxt to'nkasi, tosh o'ziga xos holatda namoyon bo'lardi.

Haykaltarosh bo'lish osonmi? - degan savolga u shunday javob berardi. Qiyin juda qiyin. Ammo jon dildan sevgan kasbidan kim ham chekinadi. Sen bunyod etgan asar ko'p yillar mangu yodgorlik bo'lib tursa, qalbingda o'zgacha bir hissiyot paydo bo'ladi. Mening dardim, quvonchim, orzu-umidim ham shu – haykallar, hayotdan toshga muhrlangan holatlar, voqealar, tasvirlar. Haykaltarosh ustaxonasi bir dunyo

²⁶www. Ilhom Djabbarov Uz "Кўхна ва бокий Бухоро" Ilhom Jabborov to'g'risida maqola. 2010 yil.

go'zallik oshiyoni. Bu yerda har bir ijodkorning o'z qo'li, o'z yo'li, o'z uslubi bor. 1960-1970-yillarda yaratilgan Ilhom Jabborov nomini elga tanitgan mashhur asarlari "Mashrab", "Hayol", "To'yga chorlov", "Kelin", "Sevishganlar", "Qiz" kabilardir. Ayniqsa, uning "Hayol" nomli kompozitsiyasi diqqatga sazovordir.

O'zbekiston komsomolining ilk tashkilotchilardan biri Abdulla Nabiyevning Qo'qonda o'rnatilgan haykali uchun uni mukofot bilan taqdirlashgan edi. Bu mukofot uni yangi ijod ufqi sari chorladi. Ko'p o'tmay u Toshkent metrosining Hamid Olimjon stansiyasida shoirning yodgorligini ishladi. Poytaxtning Sobir Rahimov nomli bolalar bog'ida xalqimizning sevimli shoiri Furqat (1982) haykalini yaratdi. Uning asarlarida milliylik, xalqimizning urf-odatlari mahorat bilan tasvirlanadi. Ilhom Jabborov har bir asarni bunyod etishi uchun o'nlab kitoblarni mutolaa qiladi. Tinmay izlanadi. Uning Namangandagi Alisher Navoiy nomli musiqali dramma teatri oldida o'rnatilgan "Xamsa" (1982) kompozitsiyasi uning ijodida alohida o'rinn tutadi. Bu klassik asarga murojaat etish, uning faoliyatida yangi bir yo'nalishni boshlab berdi.²⁷

Uning "Zamondoshlarimiz obrazi" turkumida yaratgan asarlari ham e'tiborga molikdir. Bu turkum asarlarini yaratish uchun Ilhom Jabborov ko'p o'qish ustoz san'atkorlar ijodini qunt bilan o'rganishdan tashqari odamlarni, hayotni o'rgandi. U ikki yil davomida respublikamizning turli shahar va qishloqlarida bo'ldi, cho'lquvarlar, paxtakorlar, suvchilar, sog'uvchilar va mexanizatorlar, keksa dehqonlar bilan uchrashdi. Ularning turmushi, orzu-o'ylari bilan yaqindan tanishdi. Ana shunday izlanishlar va uzoq qilingan mashaqqatli mehnatdan so'ng 1970-yillar o'rtalarida "Sog'uvchi Jamila", "Suvchi Jamol", "Ona", "Traktorchi Sayfi Rahmon", "Keksa paxtakor Ziyoyev" kabi o'nlab asarlar dunyoga keldi. Bu asarlarning har biri o'z "shaxsi", ichki dunyosi va qiyofasi bilan bir-biridan tamomila farq qiladi.

Yosh ijodkorning gipsdan yasalgan "Keksa paxtakor Ziyoyev" (1975) portreti yuzlari saraton quyoshida qoraygan, soch-soqoli qordek oppoq mehnatkash o'zbek dehqoni. U butun hayotini ona yurt baxtiga, ona yerga bag'ishlagan. Mushtdayligidan

²⁷J. Rahimov. San'atga aylangan lahzalar. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. Toshkent. 1989. 4-b

hozirgacha bor kuchini paxtadan mo'l hosil yetishtirishga sarflayotgan keksa dehqon Ziyoyev obrazi aniq yetkazib berilgan. Portretga tikilar ekansiz, ko'z oldingizda yuzlab minglab "oq oltin" ijodkorlari qiyofalari jonlandi. Ularning yaratuvchilik mehnatiga tahsinlar o'qigingiz keladi. "Suvchi Jamol" (1975) asarida esa tunlarini bedor o'tkazib, g'o'zalarga hayot ato qilayotgan dehqon qiyofasi yaratilgan.

Ilhom Jabborov faqat maishiy mavzularga murojaat qilmasdan, balki tarixiy mavzularga qo'l urgan. U ijodi davomida tarixiy mavzularda ham bir qator asarlar yaratgan. Uning Forobiy portretini ana shu mavzudagi eng yaxshi asar deyish mumkin. Haykaltarosh feodal tuzumi va islom aqidalari hukmron bo'lgan murakkab davrda yashab ijod etgan, insoniyat tafakkuri taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimning qiyofasini yaratguncha katta izlanishlar jarayonini bosib o'tdi. Chunki Forobiyning san'at muxlislariga manzur bo'ladigan obrazini yaratish uchun uning qiyofasi, betakror xatti-harakatlarini mukammal ifodalash bilan birga, qomusiy aql egasining ma'naviy dunyosini, tuyg'ular olamini gavdalantirish talab etilardi. U mana shunday qiyin vazifani bajarish uchun Forobiy yashagan davr tarixiy manbalarini, forobiyshunoslarning mushohadalarini puxta o'r ganib chiqdi. Bularning hammasi haykalning muvaffaqiyatli bunyod etilishida katta ahamiyat kasb etdi. Natijada qomusiy olimning bir qarashdayoq salobati bilan xotirada o'rnashib qoladigan haykali dunyoga keldi. Bu asar mahorat bilan yaratilgani uchun respublika konkursida uchinchi o'rinni egalladi. Uning tarixiy shaxslar seriyasidagi yana bir ishi "Boborahim Mashrab" deb ataladi. Mashrab ham adolatsiz jamiyat qurboni. Haykaltarosh Mashrab obrazida ana shunday g'urbatlari davrning buyuk siymosi qiyofasini juda mahorat bilan tasvirlaydi. Bundan tashqari uning "Maksim Gorkiy" (1976), "Hamid Olimjon" (1976), "Aloqachi" byusti (1977), "Habib Abdullayev" (1977), "Timiryazev" (1977), "Farhod" (1978) kabi asarlari ham e'tiborga molikdir.

Ilhom Jabborov buyuk olim Xorazmiy haykali va do'sti Yuozas Lipas bilan hamkorlikda Yo'ldosh Oxunboboyev haykalini ham yaratganlar.²⁸

Ilhom Jabborov oilasida ijobiy muhit, bir-birini tushunish va keragida yordam berish yaxshi odat bo'lib qolgan. Turmush o'rtog'i Tatyana teatrshunos. Katta qizi Laylo otasi izidan borib, Leningraddagi badiiy akademianing tasviriy san'at fakultetida ta'lim olgan. Bu oilaning xonadonida bo'lgan kishi o'zini san'at muzeyining bir burchagidadek his qiladi. Qishloq manzaralari, zamondoshlarimizning portretlari hamma hammasi sizga bir olam quvonch baxsh etadi. Ularni tomosha qilgan har bir kishi dilida allaqanday bir iliqlik tuyadi.

Birinchi bobga yakun yasagan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: XX asrda O'zbekistonda haykaltaroshlik namunalari inqilob g'alabasining g'oyaviy natijalari sifatida paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonning bir qator viloyatlari Toshkent, Buxoro, Samarqand va Qo'qon kabi yirik shaharlarda inqilob kurashchilari va xalq hayotini ifodalab beruvchi mahobatli haykallar o'rnatiladi. Bu jarayonda bir qator haykaltaroshlar Kudryavseva, O. Korjinskaya, G. Massons, Grishenko, Krimskaya kabi haykaltaroshlar o'z ijod namunalarini yaratdilar.

Bundan tashqari, milliy haykaltaroshlarimizdan M. Musaboyev. A. Shaymurodov, X. Xusnuddinxo'jayev, A. Ahmedov, G. Xoliqov, A. Boymatov kabi haykaltaroshlar ham o'zbek haykaltaroshligi sohasiga o'z hissalarini qo'shdilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, D. Ro'ziboyev. J. Quttimurodov, A. Xotamov, T. Tojixo'jayev kabi iste'dodli haykaltaroshlar ham XX asr ikkinchi yarmida juda faol ish olib bordilar. Shular orasida Ilhom Jabborov o'zbek haykaltaroshlik san'atiga alohida hissa qo'shib kelmoqdalar. Haykaltarosh ijodining ilk davrlarida dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaratgan bo'lsa, keyinchalik tarixiy shaxslarni, yozuvchi va shoirlarni mahobatli haykallarini ishlash uning asosiy yo'nalishiga aylandi. U hozirgi kunda asosan mahobatli haykaltaroshlik namunalarini yaratish bilan shug'ullanib kelmoqda.

²⁸ G'. Xotamov. Katta orzu yo'lida. Toshkent oqshomi. Toshkent 1979-y. 5-b.

II. BOB. O'ZBEKISTON MUSTAQILLIK YILLARI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATIDA IHOM JABBOROV IJODI.

2.1. Ilhom Jabborov ijodida tarixiy shaxslar obrazi.

XX asrning so'nggi o'n yilligida O'zbekiston haykaltaroshligi yangi ijodiy bosqichga erishishi uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Ma'lumki, haykaltaroshlik bu davrga qadar to'la shakllanib, munosib darajada rivojlangan bo'lsa hamki, hanuzgacha tom ma'noda milliy mazmunni mustahkamlab ulgurmagan edi. Ko'pmillatli xalqlar san'ati xarakteridan mutlaq ayri yo'ldan borishiga davrning siyosiy-mafkuraviy hamda badiiy-madaniy hukmronligi imkon bermagan edi. Garchand, 1970-yillardan tarixiy shaxslarning mahobatli haykallari o'rnatilgan bo'lsa-da, biroq, ular monumental san'atga xos ulug'vor badiiy talqinlarga muhtoj bo'lган. O'zbekiston 1991-yildan davlat mustaqilligiga erishishi bilan mana shu vaziyat tubdan isloh qilindi. Mahobatli yodgorliklarning mazmun mohiyati, plastik shaklu-shamoyili va boshqa ijodiy yechimida ilk bor milliy tuyg'u ustuvorligi yetakchi o'ringa ko'tarildi. Bu albatta, sohani yangi ijodiy tartibda rivojlantirish fursati paydo bo'lганligini anglatadi.

Natijada istiqlolning dastlabki yillaridanoq o'zgarishlarga boy bo'lган, ta'bir joiz bo'lsa, tom ma'noda ijodiy yangilanish davri boshlandi. Jamiyat hayotining o'tish davri murakkabligiga qaramay, milliy rivojlanish jarayoni harakati yuzaga keltirildi. Uni milliy san'atimizning tarkibiy qismiga aylantirib, xalqchil ravishda rivojlantirishga yo'l ochildi.

1990-yillar boshidan mamlakat hududini nomahalliy yodgorliklar dan holi etib, ular o'mida milliy haykallar bunyod qilindi. Pirovardida respublikaning shahar markazlarida buyuk mutaffakir-allomalar, adolatli hukmdor va sarkardalar, shuningdek boshqa ko'plab milliy mavzuli haykallar o'rnatilib, yangi muhitni

shakllantirishga izchil kirishildi. Bu jarayon bira to’la yangi iste’dod egalarini ham saralab berdi. 1970-1980-yillarda mahobatli haykalataroshlik bo'yicha o'z tajribasini sinab ko'rgan Ilhom Jabborov, Kamol Jabborov va Jaloliddin Mirtojiyevlar e'tibor qozona boshladi. Ular zamon ehtiyojini qalban his etib, ma'suliyat yukini ko'tara oldilar. 1991-yilgi tarixiy voqeadan ilhomlanib, ajdodlarimiz siymosini ixlos bilan ishladilar. Yangi mafkuraviy ehtiyojlarga muvofiq izlanish, obrazlarni xalqchil ravishda ta'sirli, moziy ruhini ham ifodali yoritishga intildilar.

Jumladan, Ilhom Jabborov yangi tarixiy davrning g'oyaviy yo'nalishlarini boshqalarga nisbatan tezroq tushunib yetdi. Buyurtmalar ijrosi o'z ichiga mustaqillik ruhini qamrab olishi va milliy tuyg'ularni uyg'otishi lozimligini teran anglab yetdi. Natijada bajargan haykallarida milliy ko'tarinkilik, tantanavor o'ziga xoslik, ayniqsa, monumental yechimga javob berishi yaqqol sezildi. Zimmasidagi ijodiy ma'suliyatga to'g'ri yondashishi bilan haykallarga yangi qiyofa singdira oldi.

1990-yillarda yetakchi o'ringa ko'tarilgan milliy g'oyani haykallarning badiiy ifodasiga singdirib, o'tmisht tariximiz, ma'naviy-madaniy merosimizni mohiyatan aniq ko'rinishda tasvirlashga alohida yondashildi. Allomalarni tavallud kunlarini tantanali ravishda nishonlash, yillarni ajdodlarimiz nomi bilan atalishi doirasida ularga atab yodgorlik haykallar o'rnatish an'ana tusini oldi. Natijada mahobatli haykaltaroshlikda tarixiy janr oldingi davr yondashuvidan farqli ravishda sohaning milliy maqomini oshira boshladi.

Mahobatli haykaltaroshlik asarlarining mukammalligida kompozitsion tuzilishi hamda uslubiy badiiy saviyadorlik masalasi muhim omil hisoblanadi. Zero, ijodkor dastlabki ishni ham kompozitsion tuzilishdan, ya'ni umumiyl ko'rinishi, syujet tanlanishidan boshlaydi. Uning esa o'ziga xos nazariy va amaliy tomonlari mavjud. Xususan, yodgorlikning umumiyl plastik ko'rinishini ma'lum bir xarakterga asoslash, yordamchi predmetlarni asos qiyofaga muvofiq joylash nazariy jihatini belgilaydi. "Bunda dastavval qiyofaning umumiyl ko'rinishidagi kontur chizig'i mukammal bajarib olinishi kerak. Agar u o'rinali topilgan bo'lsa, shaklu-shamoyili ko'zlangan

maqsadni bera oladi. Keyingina qiyofaning hajmiy-fazoviy holatini belgilovchi yorug'-soya o'yinlari turli unsurlar vositasida amalga oshiriladi. Uning kompozitsion ko'rinishi mazkur nazariy masalani amalga tadbiq etilishiga qarab baholanadi”, degan mutaxassis fikri o'rinnidir. Mahobatli haykallarning tashqi ko'rinishi va shakllarning umummutanosiblik ifodaviyligi uni uzoq masofadan idroklash imkonini beradi, shu bois shakllar fazoviy bo'shliqda yo'qolib ketmasligi uchun yaxlit va yirik ko'rinishda modellashtiriladi. Buni personajlarning yuz ifodaviyligi, realistik va unsurlarning ishonarli bajarilishi asosiy ahamiyatga ega.

Mahobatli haykallar uchun plastik til ravnligi nechog'li muhim bo'lsa, shakl talqinlarining badiyiliги ham shunchalik zarurdir. Chunki, bu - asarlar savyadorligiga daxldor tayanch kuchlardan biri bo'lib, g'oyaviy mazmundorlik manbai hisoblanadi. Masalan, usluban realistik tamoyillarga monand bo'lgan “Amir Temur” yodgorligining badiyiliги kompozitsion ko'rinishni quvvatlantirib, o'ziga xos tantanavor qiyofani gavdalantiradi, shuningdek ortiqcha badiy ishlovlardan holi ravishda hayotiy ko'rinishga xos xususiyatni ochib beradi.²⁹

Istiqlolga erishganimizdan so'ng biz tarixiy adolatni qaror toptirish, xalqimizning toptalib kelgan milliy g'ururini yuksaltirish maqsadida Sohibqiron Amir Temur bobomizning nafaqat muborak nomi, boy merosi va xotirasini, ayni paytda tarixiy siymosini ham tiklashga qaror qildik. Sovet davrida bu masalada g'arazli siyosat olib borilgani, asossiz ravishda bobomiz jaholat va yovuzlik timsoli sifatida ko'rsatib kelgani bugun hech kimga sir emas. Nega deganda, mustabid tuzum tarixiy haqiqatni namoyon etishdan, bizning milliy o'zligimizni anglashimizdan mutlaqo manfaatdor emasdi. Ba'zi bir miniatyura asarlarini hisobga olmaganda, o'z vaqtida Amir Temurning portret-surati chizilmagan. Lekin ushbu miniatyuralar buyuk Amir Temurning betakror shaxsiyatini har tomonlama to'liq va haqqoniyl aks ettira

²⁹ D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 47-50-51-b

olmasligini tushunish qiyin. Chunki bu rasmlarning birida Sohibqiron mo'g'ulga, yana birida hindga, uchinchisida boshqa bir millat vakiliga o'xshatib tasvirlanadi. Shu tufayli biz uning asl qiyofasi qanday bo'lgani haqida aniq tasavvurga ega emasdik. Ko'pchiligidan uni sho'rolar davrida antropolog- haykaltarosh M. Gerasimov "yaratgan" qo'rqinchli byust orqali bilardik, xolos. Afsuski, tarix ilmida ham Amir Temur haqida bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar, chalkash talqinlar ko'p uchraydi. Shuning uchun ham buyuk bobomizning portretini qadimiylar manbalarni har tomonlama sinchiklab o'rganib, tarixiy-ilmiy haqiqat asosida yaratish talab qilinar edi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Amir Temur davriga oid ba'zi yozma yodgorliklarda u zot haqida yetarli ma'lumotlar mavjud ekan. Jumladan, Amir Temur saroyida yetti yil yashagan mashhur tarixchi Ibn Arabshox bobomizning surati va siyratini shunday tasvirlaydi: "Temur baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag'oyat kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, keng yelkali, qaddi-qomati kelishgan, sersoqol, o'ng qo'li va o'ng oyog'i zaxmdor, ikki ko'zi bamisolik ikki shamday porlab turadigan, yo'g'on ovozli, ulug'ligi o'ziga yarashgan, qat'iy azmu qaror bilan so'zlaydian, haqgo'y kishi edi. U zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov, har qanday ishoratdan ogohli kishi bo'lib, yuz berishi mumkin bo'lgan hamma ishni oldindan ko'rib-bilib turar edi". Turli manbalarda qayd etilgan ishonchli tarixiy dalillarga tayangan holda, avvalo Amir Temur portretining bir necha xomaki variantlari tayyorlandi.³⁰

Haykaltarosh Sohibqiron Temur obraziga murojaat qilar ekan, buyuk sarkarda haqidagi adabiyotlarni, miniatyura tasvirlarini, rassomlarning ishlarini sinchkovlik va qunt bilan o'ranadi. U bu haqida shunday deydi: Amir Temur obrazini yaratish orzusi menda ancha oldin paydo bo'lgan edi. O'shanda Samarqand shahrida bo'lganimda tepamda huddi ulug' bobomiz ruhi uchib yurganday qalbim laraga kelgan edi. Samarqandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon bo'yidagi tepalikning ustida

³⁰Mustaqillik davri o'zbek monumental haykaltaroshlik san'ati. SMI- ASIA 2011.

Sohibqiron ruhi shaharni qo'riqlab turganday ko'z oldimga keldi. Necha asrlardan keyin yetib keldim, uchib keldim, deyayotganday edi. Haykalimning g'oyasi ham shu fikr-o'ylar, hayolda turgan obraz asosida shakllandi. Amir temur 27 davlatga madaniyat olib borgan, zolimlarning dodini bergen, qayerda qo'zg'olon bo'lsa, borib bostirib, tinchitib kelgan. Haykaldagi ot jilovini mahkam ushlab turganining ham ramziy ma'nosi bor. Katta bir mamlakatni boshqarib turgandayholati ifoda etilgan. Go'yo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab-yashnasin, deb turganday g'oya ilgari surilgan.

Toshkentdag'i Amir Temur haykalida buyuklik siymosi uning umumiy kompozitsion xarakterida o'z ifodasini topgan. Amir Temur haykalini ot ustida tasvirlash ijodkordan ko'plab nodir namunalar bilan tanishishni talab etgan. Chunki, otning plastik holatini ifodalash masalasini qiyin jarayondir. Mualliflar obrazga xos plastik ifodaviylikni izlash jarayonida buyuk san'atkorlar ijodiga, tajribasiga murojaat etib, ulardan olgan taasurotlarini o'z ijodiga singdirib borishga harakat qildi. Chunki, otning plastik holatini ifodalash masalasi qiyin jarayondir. Mualliflar obrazga xos plastik ifodaviylikni izlash jarayonida buyuk san'atkorlar ijodiga, tajribasiga murojaat etib, ulardan olgan taasurotlarini o'z ijodiga singdirib borishga harakat qildi. Bu borada Uyg'onish davrining mashhur haykaltaroshi A. Verokkioning Venetsiyadagi haykali E. M. Falkonening "Pyotr I" va qadimgi rim klassik haykaltaroshligi namunalarining plastik yechimini kuzatib, o'z ijodi bilan omuxta qilishga intilgan. Realistik uslubda ishlangan mazkur monumentda kuchli plastik harakatlar ko'zga tashlanadi. Amir Temurning jo'shqin ichki xissiyoti otning biroz badiiylashtirilgan ko'rinishi bilan birlashib, uning kompozitsion tuzilishini mukammallashtirdi. Haykal, shaklan betakror va mayda bezakli unsurlar bilan boyitilgan. Temurning bu otliq haykali 2 metrli tagkursiga o'rnatilgan bo'lib, unga "Kuch adolatdadir" hikmati bitilgan. Ilhom Jabborov mazkur asarni "Yurtga qaytish", "Pand-nasihat" g'oyalari asosida yaratilganligini ta'kidlaydi. Monumentda go'yoki dushmanlarni yengib, jang maydonidan poytaxtga kirib kelgan sohibqiron fuqarolari bundan buyon davlat xavf-

xatardan holi bo'lgani, tinchlik va farovon hayot bo'lajagini e'lon qilayotgandek tasvirlangan sohibqironning ruhiy holati yuzida, undagi imoda yaxshi ifodalangan.

Haykalning (oldidan qaraganda) o'ng tomondan ko'rinishi plastik shakl mutanosibligi, yorug'-soya o'yinlarning xarakterli nuqtasi deyish mumkin. Chunki, bunday ko'rinishdagi shakl ifodaviyligi ko'zlangan g'oyani yoritib berishda o'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Shuningdek, haykalni old va chap tomonlama yarim ko'rinishlarida ham obrazga xos ifodaviylikning shaklan e'tiborli yechimini ko'rish mumkin. Ayniqsa, uni frontal rakursdan kuzatilishida obrazga xos dabdaba va ulug'vorlikni yaqqol sezish mumkin. Ayniqsa, haykalning umumiyl kontur chiziqlarida kompozitsion tuzilishning yutuqli jihatlari yaqqol seziladi. Yodgorlikning kontur chiziq bo'ylab hosil bo'ladigan o'ziga xos badiiy xususiyatlari tungi chiroqlar vositasida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Haykalning ramziy-falsafiy yechimi: tinchlik va osoyishtalik,adolat va bunyodkorliktimsolini ifodalaydi. Shuningdek, buyuk shaxs siyosiga ramziy vosita o'laroq yangi mustaqil jamiyat qudratli ajdodlarning ruhiy madadi ostida taraqqiy etishini aks ettiradi. Bundan tashqari obrazning boshqa falsafiy mazmuni ham mavjud. Chunonchi Sohibqironning badiiy qiyofasi – mustabidchilik davrida tashviq etilgan nohaq qarashlarga barham beruvchi ifodaviy yo'sinda gavdalantirildi. Uning mazkur ko'rinishida sobiq tuzum davridagi barcha sun'iy qarashlarni ildizi bilan inkor etuvchi badiiy ifodaviylik mujassamlashgan. Yodgorlikda odil sarkarda qilichsiz qo'lini hikmatli ko'tarib, dunyo ahliga tinchlik-omonlik tilayotgani bilan 1990-yillar yangi tarixiy-mafkuraviy ruhida yaratilgan mahobatli haykallarning yorqin mamunasi hisoblanadi. Zero, umumiyl shakl talqinida milliy tiklanish, ajdodlarimizga xos vatanparvarlikfazilatlari, shuningdek, ular ruhiyatidagi komil sifatlarni xalqimiz ruhiyatiga singdirish, o'tmish bilan yangi davrning ramziy bog'lanishlari aks ettirilgan. Amir Temurning dabdabali ko'rinishida shaxsiyatga xos xususiyatlar ochib berilgan. Kompozitsion tuzilishiga ko'ra O'zbekiston davlat mustaqilligiga ramziy ma'no kasb etuvchi zafarona qiyofada gavdalantirilgan.

1996-yili “Amir Temur” yili deb e’lon qilindi. Shu yili Vazirlar Mahkamasi “Amir Temur tavalludining 660-yilligini nishonlash to’g’risida”gi (1994 y., 29.12. N 346F) Qaror va farmoyishlarini qabul qildi. Ushbu qarorlarga ko’ra Sohibqironning ona yurti Shaxrisabzda va markazlashgan davlatning poytaxti Samarqand shahrida unga atab yodgorliklar yaratildi. Bu ikki shahardagi Amir Temurning mahobatli haykallari (I. Jabborov va K. Jabborovlar tomonidan yaratilgan) 1996-yili noyabr oyida ochilgan. Har ikki haykalni qiyosiy tahlil etadigan bo’linsa, ular bir-biridan o’zaro farq qiladi. 1996-yili Samarqandda o’rnatilgan Amir Temur haykalida (hajmi 6 m.) Sohibqironning buyuk hukmdor siymosi plastik ifodasini topgan. U taniqli musavvir Malik Nabiyevning etalon sifatida qabul qilingan asari asosida bajarilgan. Ushbu haykal shoxona libosda, taxtmasnatda o’tirgan ko’rinishda tasvirlangan. Taxtdagi o’tirish holatidan qalbining bevosita qilayotgan tug’yonlarini ilg’ab olish mushkul emas. Davlatining kelajakdagi taqdiri haqida bezovta bo’lib chuqur o’yga tolانligini yuz tuzilishidagi ichki kechinmalardan bilib olish mumkin. Yuz tuzilishida keksalik alomatlari zohir bo’lishi har ikkala yodgorliklarning qiyofasida o’zao o’xshashlik kasb etadi. Ushbu yodgorlik Toshkentdagisining shakliy-g’oyaviy xususiyatidan quyidagicha farq qiladi. Agar Toshkentdagi yodgorlikda ifodaviy urg’u jasur sarkarda va adolatpesha fazilatlariga berilgan bo’lsa, mazkur haykalda qudratli saltanatni aql-idrok va donishmandlik martabasi bilan boshqaruvchi hukmdor siymosi tasvirlangan. Bu xususiyat qahramonning shoxmasnat o’ziga xos samimiy va teran kayfiyat bilan o’tirgan holatini yoritib beruvchi vazmin dinamik xatti-harakat ifodasida yaqqol sezilib turadi. Yodgorlikda buyuk jahongir qilichi ustiga ikki qo’lini allomalarga xos hassaga tayanish holatida qo’yib turishi bejiz emas. Bunda o’ziga xos ramziy va hikmatli ma’nolar ilgari surilgan. Chunonchi, mazkur ko’rinish ahli donish allomalariga mansub xislatni aks ettiradi. Masalan, huddi shu kabi mumtoz plastik ko’rinishni Mahmud Muzahib mo’yqalamiga mansub “Alisher Navoiy” mo’jaz asarida hamda Abdulhaq Abdullayevning “Alisher Navoiy” kartinasida kuzatish mumkin. Hazrat Navoiyning bunday holatdagi hassaga tayanishi ruhiy kamolotining

yuqori cho'qqisida zuhur etgan birlik, yakkalik, ya'ni mutlaq Olloh muhabbatiga suyanish timsolini ifodalaydi. Demakki, bu kabi ifodaviylik Amir Temur siymosida ham o'z aksini topgan bo'lib, Jahongirmirzo saltanatini mustahkamlash va markazlashgan davlatchilikni barpo etishda ilohiy mezonga tayanib, adolat qilichini behuda ishlatmaganligi talqin etilgan. Bu esa o'z navbatida sobiq tuzum davrida Amir Temur shaxsiga nisbatan yuritilgan zolim sarkarda iborasiga ham jiddiy javob sifatida e'tilishi mumkin.

Shuningdek, Shahrisabzdagi "Amir Temur" haykalida ham mustaqillik davri mahobatli haykaltaroshligida ustuvor tamoyiliga aylangan buyuklik siymosini ochib berish yondashuvi mavjud. Sohibqironning ulug'vor haykali aynan Oqsaroy oldida qad roslagani bejiz emas. Buning o'ziga xos, o'ziga mos chuqur ramziy ma'nosi bor. Binobarin, mazkur yodgorlik Temuriylar davri me'morligining eng muhtasham va nodir namunasi hisoblanadi. Shu bois, mustaqillik davri an'anasi ko'ra obidaning tevarak atrofini obodonlashtirib, uning qarshisida jasur sarkarda haykali o'rnatilgan. Ushbu haykal (postamenti hajmi 7 m., yodgorlik 8m.) sohibqiron o'z tasarrufida bo'lган hududini har galgidek nazoratidan o'tqazayotgandek ko'rinishida barpo etilgan. Buni cho'qqining ramziy ifodasi orqali ilg'ab olish mumkin. Yodgorlikning baland poydevori bilan o'rnatilishi uning ulug'vorlik darajasini oshiradi hamda mavqe darajasini yaqqolroq his qilisga yordam beradi. Amir Temurning Toshkent, Samarqand va Shaxrisabzdagi uchta yirik haykallarida turlicha ko'rinish va g'oyalar ilgari surilgan bo'lib, yodgorlikdagi yaxlit ko'rinishda takrorlaydigan jihatlari ularning portret qismida seziladi. Shuningdek, har biri o'ziga xos badiiy ifodaviy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temurning mazkur haykallarida obrazga xos buyuklik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanib, uning biz avlodlarga hikmatli boqayotgan nigohida go'yoki- yurtga qaytish, tarixning qora sahifalarida bitilgan nohaq fikrlar zulmidan ozod bo'lish ruhyati sezilib turadi.³¹

³¹ D. Po'latov. O'zbekiston zamoniaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 60-61-62-b.

Tarixiy xotira – xalq ma’naviyatining asosidir. Ana shu buyuk asosda, ma’naviy mulkimiz uchun butun hayotini Vatan ozodligi, xalq baxt-saodatiga axshida etgan buyuk sarkarda Jalolidin Manguberd turadi. Bu dovyurak Vatan himoyachisi xotirasini abadiylashtirish maqsadida ham 1998-yilda yana bir hukumat qarori qabul qilindi. Shunga asosan Xorazmda Jaloliddin Manguberdi yodgorligi barpo etildi. Jaloliddin Manguberdining tabarruk siy whole in toshga tushirish, haykal o’rnatish uchun ko’pgina ishlar amalga oshirildi. O’nlab mualliflar loyihamo yaratib, hay’at a’zolariga ko’rsatishdi. Haykaltaroshlar Ilhom Jabborov hamda Kamol Jabborovlar tomonidan bajarilgan loyiha tasdiqlandi va shu asosida haykal yaratildi.³²

Uning badiiy ifodasi bo'yicha buyurtma talablaridan biri- mohir sarkarda qiyofasi ramziy ma'noda burgutday uchqur ko'rinishda bo'lib, tog' cho'qqisida tasvirlanishi edi. Haykaltaroshning ijodiy izlanishi shu talabdan kelib chiqib amalga oshirilgan. Shuning uchun haykal kompozitsion tuzilishi jihatidan bamisolli burgutday uchqur qiyofada tasvirlangan. Uning sarkardalarga mansub plashining shamoldagi harakatlanishi qush parvoziga xos ko'rinishni tasvirlaydi. Haykal plastikasi shakl mutanosibligi bilan uyg'un holda obrazning ichki ifodasiga bo'ysindirilib, bosh g'oya bo'lgan jasorat timsolini ifodalashga xizmat qiladi. Haykalning orqa planida ko'hna Urganchning ramziy me'moriy obidalari tasvirlanishi ham beziz emas. Ramziy timsolga tayanib ifodalangan ona vatan qarshisida Jaloliddin Manguberdining muzaffar qiyofada gavdalanishi mamlakat xaloskorin g'oyasini ochib beradi. Haykalning ushbu mazmundorligi jamiyatimizning vatan himoyasiga mas'ul barcha shaxslari uchun ramziy qiyofadir, deyish mumkin. Haykal vatan himoyachilarimizni ruhiy va ma’naviy kamolotga ega bo'lib, tarixiy qahramonlarimizga xos fazilatlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy vosita vazifasini o'taydi. Albatta yodgorlik

³² O'zbekiston san'ati 1991-2001-yillar. T:2001. 31-b

bunday xususiyatlarini uzoq vaqt saqlashi uchun, uning ashyosi mustahkam manbadan qayta ishlanishini taqozo etadi.

Ilom Jabborov tomonidan yaratilgan yana bir monument 1992-yil Namanganda o'rnatilgan "Mashrab" haykalidir. "Mashrab" haykali bog' darvozasidan (taxminan) 30 metr ichkariga o'rnatilgan bo'lib, darvozaga qarama-qarshi tarzda joylashtirilgan. Uning bunday holatda o'rnatilishida o'ziga xos ramziy ma'no mujassam. Chunonchi, mutafakkirning tez orada ushbu darvozadan chiqib ketadigandek taassurot uyg'otuvchi harakatchan qiyofasi, komillikka erishish uchun kechirgan hayoti ona diyoridan olislarga o'tganligini anglatadi. Haykaltarosh uning libosini jiddiy e'tibor bilan ishlab, shamolning g'oyibona harakatlarini aks ettirgan. Uning old ko'rinishi, yon va orqa tomonlari ham allomaning botin olamiga moyil ravishda amalga oshirilgan. Qat'iyat bilan shahdam qadam bosishi va liboslarining shamolda xilpirab turishi yodgorlikka kuchli dinamik xatti-harakat bag'ishlaydi. Bu esa asarni asosiy shaklu-shamoyili allomaning dashtu-cho'llar aro darbadar kezib, oliy maqsad sari dadil borishini ochib berishga xizmat qiladi. Haykalning umumiyligi ko'rinishida obrazga xos ichki xarakter ochib berilgan. Haykal umumiyligi kompozitsion tuzilishi, detallashtirilishi va plastik harakatlarni ifodalanishi nuqtai nazaridan mahoratli bajarilgan. Uning qo'l panjalari plastik xususiyati bo'yicha muvofiq yechimga ega. Umumiyligi shakl kompozitsiyasi jiddiy izlanish natijasida yuzaga kelganligi sezilib turadi. Haykal har tomonidan ko'rinishi bo'yicha obrazga xos xarakterni ochib berishga xizmat qila oladi. Kompozitsion tuzilishi, plastik ifodalanishi nuqtai nazaridan yodgorlikni yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan yodgorliklar sirasiga kiritish mumkin.³³

Istiqlol yillarda Farg'ona vodiysida o'rnatilgan mahobatli haykallar orasida 1998-yili Farg'ona va Quvada qad ko'targan Al Farg'oniy haykalini alohida e'tirof etish kerak. Yodgorlik ochiq osmon ostida zinalar bilan ko'tarilgan sun'iy balandlik

³³ D. Po'latov. Farg'ona vodiysi haykaltaroshligi. San'at – Toshkent, 2013. - №3. – 33-b

ustida qad rostlagan. Haykal orqasi yarimdoira ko'rinishdaolti ustun va uning ustidagi uch qavat zinasimon sharafa-karniz bilan bajarilgan. Bu milliy uslubdagi me'moriy unsurlar yodgorlikning salobatini oshiradi.³⁴ Ushbu haykalda allomaning ilmiy kashfiyotlari majmuining ona vatanga in'om etilayotganligi – mustaqil davlat uchun ilm-ma'rifat dasturini ramziy ifodasi talqin etilganidek, taassurot uyg'otadi. Me'moriy unsurlar hamohangligida bunyod etilgan ushbu haykalda mutaffakirning ilmiy merosi jamiyat istiqboliga ramziy tuhfa tarzida talqin etildi. Obrazda ruhan yengillik, aqliy komillik hamda mutafakkirlik darajalari o'z aksini topgan. Haykalning orqa tomonida yarim aylana shaklida o'rab turuvchi ramziy me'moriy unsurlar figuraning havo bo'shlig'ida o'z muvozanatini saqlash va bayram maydoniga ko'rk berishda katta ahamiyatga egadir.

Uning g'oyaviy mazmundorligi olimning ilmiy merosini ilm-fan rivojida munosib manba ekanligini ta'kidlashdir. Haykalning 1990-yillarda o'rnatilgan boshqa yodgorliklardan farqi shundaki, u g'oyat ko'tarinki kayfiyat bilan jamiyat taraqqiyoti komil ilm asosiga qurilishi lozimligini uqtirayotgan badiiy ifodaviylikka yo'g'rilganligidadir. Uning umumiy ko'rinishida o'z ilmiy kashfiyotlarini olamga jar solayotgan shaxs siyoshi aks ettirilgan. Shakllar talqini shu ko'rinishniidroklashga yo'naltirilgan.

Al-Farg'oniyning Quvada qad ko'targan haykalida allomaning ilmiy faoliyat jarayoni tasvirlangan. Yodgorlik biroz vazmin, o'ychan bo'lib, rotondo uslubid bajarilgan. Farg'oniyni hayol ummoniga cho'mgan qiyofada tasvirlovchi ushbu haykalda vatandoshimiz butun umrini ilm mashaqqatlariga baxshida etganligi asosiy g'oya sifatida ochib berilgan. Haykal ishlanish jihatidan klassik tamoyilga asoslangan bo'lib, Farg'oniyning keksalik davrini ifodalaydi. Qo'l va barmoq harakatlari obrazning ichki olamiga uyg'un holda topilgan. Haykal umumiy shakliga ko'ra "Mirzo Ulug'bek" (M. Musaboyev, 1994 y., Samarqand) haykaliga o'xshashlik kasb

³⁴ O'zbekiston san'ati 1991-2001-yillar. T:2001. 28-b

etsa-da, biroq o'ziga xos badiiy ahamiyatga ega. Allomaning bu ikki yodgorligi tashqi tuzilish va ichki olamidagi ifodaviylici bo'yicha qarama-qarshi yo'sinda tasvirlangan. Farg'onadagi haykal ehtirosli kayfiyatda bo'lsa, Quvadagisi vazmin va o'ychan qiyofada bajarilgan.³⁵

Butun bashariyat badiiy olamining zabardast vakili bo'l mish Nizomiy Ganjaviy – o'zining o'lmas va betakror ijodini inson ma'naviyatini kuylashga, ezgulik va fidoyilik, vafo sadoqat,adolat va jasorat kabi oljanob tuyg'ularni tarannum etishga bag'ishlagan bu ulug' zot jahondagi eng buyuk shoirlar qatorida turadi desak, also xato bo'lmaydi. Hech shubhasiz, O'zbekistonda Nizomiyning mo'tabar nomini, uning avlodlarga qoldirgan boy va ajoyib merosini bilmaydigan birorta o'zbek yo'q, desak, bu ayni haqiqat bo'ladi.³⁶

Shu asosda Nizomiy Ganjaviy byusti Ilhom Jabborov tomonidan 2004-yilda yaratilgan. Ushbu byust haykal ko'rinishini tasvirlaydigan bo'lsak, Ganjaviy bir qo'lida kitob ushlab turgan holatda tasvirlangan. Buning go'yaviy mazmuni shundan iboratki, men hali kelajak avlodga ibrat bo'luvchi juda ko'p asarlar yarataman deyayotgandek taassurot uyg'otadi. Ko'riniib turibdiki, haykaltarosh bronza xom ashyosida ishlash murakkabligiga qaramay, haykal yuz ifodasini nozik chizgilarda ochib bera olgan.

2000-yil Belgiyaning Kortreyk shahrida Ibn Sinoga haykal o'rnatildi. Barchaga ma'lumki, Abu Ali ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim hisoblanadi. "Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarga alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot umri davomida 450dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati, avvalo, tibbiyot va

³⁵ D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007. 69-b.

³⁶ Mustaqillik davri o'zbek monumental haykaltaroshlik san'ati. SMI- ASIA 2011.

falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag'ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar. "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebaho fundamental sari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'naliishlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmokologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan. Shundan ko'rinish turibdiki, u o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.³⁷ Ilhom Jabborov tomonidan yaratilgan Ibn Sino haykali obraqi Nizomiy Ganjaviy byusti obraziga uyg'un holda yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Bu obrazda ibn Sino ikki qo'li bilan kitob ushlab turipti. Va u juda chuqur hayollar ummoniga sho'ng'ib, endi qanday buyuk kashfiyotlar qilsam ekan deyayotgandek go'yo.

Ilhom Jabborovning tarixiy shaxslarga atab ishlangan obrazlari o'zining g'oyaviy mazmuni, kompozitsion yechimi bilan alohida ajralib turadi.

³⁷www.taqvim.uz.

2.2. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi Ilhom Jabborov ijodida mahobatli asarlar

Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o’rnatilgan yirik o’lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansamblari kiradi. Odatda, monumental haykaltaroshlik asarlari o’zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo’ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog’liq bo’lib, me’morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg’unlikda bo’lishi mumkin. Bu unga yanada ulug’vorlik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlikka xos bo’lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko’tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo’ljallangan bo’lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bulardan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko’rishga mo’ljallanganligi sababli, ular katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.

O’zbekiston xalq rassomi Ilhom Jabborov tomonidan Mustaqillik maydoniga o’rnatilgan Motamsaro ona haykali (1999 yil) yodgorligining yaratilishi xalqimizning ona siy whole bo’lgan chuqur hurmatining ifodasi deyishimiz mumkin.

Motamsaro ona-onaning mungli siymosi, og’ir o’yga botib, yerga tikilgan nigofiga qarab, har bir kishini yuk bosadi, g’am bosadi, ko’nglini og’riqli savollar iskanjaga oladi. “Motamsaro ona” timsolini Ilhom Jabborov kimdan namuna olib yaratgan? Obrazni yaratayotgan ijodkor o’z oldiga qanday maqsad qo’yan edi? Yoki bu obrazni yaratish chog’ida onalar haqida materiallarni o’rgangandir? Shu kabi savollarga haykaltaroshning o’zi quyidagicha javob berdi:

“Haykaltarosh javob avvalida ona to’g’risida material o’rganishning keragi yo’qligini, ona timsolining o’zi tayyor material ekanini ta’kidladilar. So’ng men o’zimning onamdan namuna olganman, boshqacha bo’lishi mumkin ham emasdi.

Onam menga o’xshagan farzanddan o’ntasini dunyoda keltirgan. Hammamizni urushdan oldingi qiyinchilik paytlarida oyoqqa turg’azgan. To’ng’ich farzandini 16-17 yoshida urushga olib ketishgan. U bedarak ketgan. Shunaqa deya hikoya qildi haykaltarosh. Bu ona – faqat urushdagi farzandini kutgan onamas, bu ona – umumiy ONA obrazining yig’indisi. Hayot davom etyaptiki – ona o’z farzandini kutgan. Ko’chada o’ynab yurgan bo’lsa ham kutib o’tirgan, yoki ishga ketsa ham kutgan. Farzandi armiyaga ketsa ham kutgan, institutga ketsa ham kutib o’tirgan. Ona faqat kutadi! Masalan meni 50 yoshimda ham “Ilhom qayerda ekan? Nima bo’ldi ekan, deb kutib o’tirardi. O’sha obraz bu”, - dedi haykaltarosh.³⁸

Har doim mahobatli haykaltaroshlik namunalari me’moriy makon bilan uyg’unlikda bo’lishi kerak. “Motamsaro ona” mahobatli yodgorligi ham makon bilan uyg’unlashib ketgan. Mazkur haykal bronzadan yasalgan, hajmi 11 metr, me’mori Valeriy Akopjanyan hisoblanadi. Ushbu yodgorlikning uzun yo’laklar markaziga joylashtirilgani, me’moriy masshtabning to’g’ri topilgani, haykalning mahobatli ko’rinishini aniq ifodalab bergen. Onaning o’tirishi nisbatan yuqoriga qilib joylashtirilgan. Biz uni pastdan turib yuz qiyofasini aniq ko’rishimiz mumkin. Haykal tugal kompozitsion yechimga ega. Ona boshini eggan holatda, ikki qo’lini tizzasiga qo’yib, bir nuqtaga tikilgan ko’yi farzandi bilan kechirgan shodon kunlari ko’z oldidan o’tayotgan, endi uni hech qachon ko’ra olmasa-da, yurti ozodligi uchun kurashgan o’g’li xotirasini manguga muhrlagan ona qiyofasi mahorat bilan gavdalantirilgan. Haykal bronza xomashyosidan ishlanganligiga qaramay, onaning bosh kiyimidagi drapirovkalar, ko’ylagidagi burmalar aniq ifodalangan. Bundan ko’rinib turibdiki, haykaltarosh o’z oldiga qo’yan maqsadiga erishgan.

Mustaqillik maydonining ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tutgan muhim o’rni va ahamiyatini inobatga olib hamda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga istiqlol g’oyalarini, milliy g’urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg’ularini yanada chuqurroq singdirish maqsadida, 2006-yil 3-yanvarda O’zbekiston Respublikasi

³⁸ www.sputnik.uz

birinchi Prezidentning “Mustaqillik va ezgulik monumenti to’g’risida” qarori qabul qilindi.³⁹ Ezgulik arkasi (muallif Rustam Ermetov) bosh maydonimizning o’ziga xos ramziy darvozasidir. Uning tepasidagi parvozga shaylanayotgan turnalar – xalqimiz qalbidagi beg’ubor orzular, oppoq laylaklar esa farovonlik va baraka timsollaridir. Arkaning baland va mustahkam ustunlari mamlakatimizning baquvvat tayanchlaridir. Bu ostonadan o’tadigan har bir yurtdoshimiz o’zini tabarruk va muazzam bir dargohga qadam qo’yayotgandek his qiladi, el-yurt ravnaqiga hissa qo’shish, avvalo, o’z oilasini mustahkamlash va turmushini obod etish bilan uyg'un ekanini anglaydi. Baxtiyor ona haykali – mehribonlik, fidoyilik, ezgulik, pok niyat, o’z hayotidan mammunlik ifodasi. Go'dagini bag'riga bosib, uning yuziga shukronalik va hayotga muhabbat bilan qarab turgan ayol baxtli ona timsolidir. Mustaqillik va ezgulik – ajdodlardan meros qadriyatlarimizni ko’z qorachig’idek asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish mas’uliyatini anglaydi. Mustaqillik va ezgulik monumenti xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, ulug’ tarixiga sadoqati, hamisha yorug’ manzilga umid va ishonch bilan intilishi, mustahkam irodasi va yuksak ma’naviy ruhi sharafiga qo'yilgan nodir va o’lmas obidadir. “Mustaqillik va ezgulik” monumenti qo’lida yosh go’dakni tutib turgan holatda ishlangan (bronza, hajmi 9 metr). Go’dak ko’targan ayol tasviri butun jahonda keng tarqalgan mavzu hisoblanadi. Haykaltarosh ushbu haykal orqali haykaltaroshlikdagi o’zbek Madonnasi obrazi yaratdi. O’z go’dagiga mehr ko’zlari bilan tikilibturgan ona nigohida shukronalik, ertangi kunga umid va ishonch, baxt balqib turipdi.

Bu asarga har xil rakursda qaraydigan bo’lsak, har xil holatni kuzatishimiz mumkin. Masalan, asarga yon tomondan qaraydigan bo’lsak ona qiyofasi old tomondan qaragandan ko’ra nisbatan yoshroq ko’rinishini kuzatishimiz mumkin. Balkim, bronzaning og’ir fakturasi shunday hissiyot uyg’otishga sabab

³⁹ Mustaqillik davri o’zbek monumental haykaltaroshlik san’ati. SMI- ASIA 2011.

bo'layotgandir. Bundan tashqari, ulkan shar yuziga O'zbekistonning siyosiy xaritasi tushirilgan. Bu hali O'zbekiston dunyo miqyosida yetakchi o'rinni egallaydi degan ma'noni anglatishini sezish qiyin emas. Sharning pastki qismiga O'zbekiston gerbi tasviri ham tushirilgan.

2010-yil 30-avgust kuni Buxoro shahrida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tashabbusi va g'oyasi asosida "Ko'hna va boqiy Buxoro" mahobatli yodgorligi ochildi. Inshoot o'zida Buxoro milliy an'analariga xos me'moriy yechimlarni chuqur mujassamlashtirgani bilan e'tiborlidir. Ushbu mahobatli yodgorlikning balandligi 18 metrni tashkil qiladi. Yodgorlikning barpo etilishi o'ziga xos uslubda yaratildi. Uning har bir kompozitsion yechimi alohida e'tiborga egadir. Monumental yodgorlikning umumiy ko'rinishi "Yer shari ostida turgan ulkan qo'ng'iroq" falsafiy ma'nosи O'zbekiston yer sharining bir bo'lagi, sababi Respublikamizning xaritasi tasvirlangan. Qo'ng'iroqning ikki tomonida madaniyatimiz namunasi sifatida muqaddas oila va uning vakillari, yana bir tomonida esa bobo o'z nabirasiga meros sifatida hunarini o'rgatmoqda. Qo'ng'iroqning eng pastki qismida har bir viloyatlarimizda barpo etilgan muqaddas qadamjolar birma bir tasvirlangan. Ma'joziy ma'noda qo'ng'iroq bu ogohlilikka da'vat, yurtimizni har qarich yerini avaylab asrashga, ota-bobolarimizning hunarini o'rganib uni davom ettirib, ezgu amallarni, savobli ishlarni to'xtatmay avlodma-avlod davom ettirishdi. Qo'ng'iroqning yana bir ma'nosи ezgulikka, ogohlika chorlab turishdir. Buxoro qadimdan Buyuk ipak yo'lida joylashganligi sababli, boy madaniyat markazi, ilm-fan o'chog'i ham bo'lган. Sababi Buxorodan ne-ne allomalar o'tgan muqaddas joy hisoblanadi.

"Ko'hna va boqiy Buxoro" monumenti ochilishi nafaqat buxoroliklar, ayni paytda butun xalqimizga cheksiz mammuniyat bag'ishladi. Uzoq-yaqindan, butun dunyodan keladigan sayyoohlarni, Buxoroi sharifni bir bor ko'rishni niyat qilgan ziyoratchilarni ham o'ziga rom etadigan darajada mukammal obida sifatida e'tibor etilayotgan ushbu majmuuning – yurtimizda yana bir shunday go'zal badiiy obidaning

yaratilishi milliy monumental san'atimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Bu ko'hna shahar – Buxoro yana asrlar osha, ming yillar osha bezavol tursin, shon-shuxrati boqiy bo'lib, yanada obod bo'lzin, degan g'oya ushbu yodgorlik timsolida badiiy tarzda ifoda etilgan. G'oyat salobatli, uzoqdan ko'rindigan va e'tiborni o'ziga tortadigan darajada go'zal va betakror ushbu badiiy obida uch bosqichdan iborat bo'lib, ularning har biri alohida ma'no va falsafaga ega. Ayni paytda ularning barchasi o'zaro uzviy bog'lanib, g'ururi baland, ilmparvar va mehnatsevar Buxoro xalqining tarixiy qiyofasi, bunyodkor siymosini yorqin ifoda etib turibdi.

Majmuaning birinchi bosqichida tasvirlangan Buxoroning oltin tuprog'i orqali bu vohaning shu qadar yuksaklikka ko'tarilishida uning sahovatli, tom ma'noda oltin zamin asos bo'lib kelayotgani o'z badiiy ifodasini topganini sezish, anglash qiyin emas. Tarixdan ma'lumki, qadimda Buxorodan oltin konlari topilgan. Bugungi kunda ham Buxoro tillasi asl tilla hisoblanadi. Lekin Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning oltin zamini va fidoyi, mehnatkash odamlaridir.

Ikkinchi bosqichida Buxoro tuprog'ida tavallud topgan va uning shonu-shuhratini butun dunyoga tarannum etgan Ismoil Somoni, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijdivoniy kabi zotlarning maqbaralari va nomi yeti iqlimga mashhur me'moriy obidalarning tasviri, ulug' allomalarning mashhur asarlari va hikmatli so'zlaridan namunalar aks ettirilgan va ularning barchasi "Buxoroning har bir toshida tarix mujassam", degan g'oyani ifoda etishga qaratilganki, bu o'z navbatida oldingi bosqichdagi fikrga uyg'un va hamohangdir. Ya'ni Buxoroning tuprog'i qanchalik bebaho bo'lsa, uning buyuk tarixi va madaniyati, ma'naviy merosi ham shunchalik bebahodir, degan fikr bu bo'limning tub negizini tashkil etadi.

Uchinchi bosqichda bugungi bunyodkor zamondoshlarimiz siymosi orqali yaratuvchan mehnat, oila muqaddasligi, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik ulug'lanadi. Ya'ni, bu bosqichda o'z nabirasi bilan birga daraxt ko'chati ekayotgan bobo, shogirdi yordamida uy qurayotgan usta hamda ayolining qo'lidan farzandini olib, bag'riga

bosishga intilayotgan yosh ota siy whole aks ettirilgan. Xalqimizda farzando'stirish, uy qurish, daraxt ekish, bir so'z bilan aytganda ertangi kunni o'z farzandlarining baxtu kamolini o'ylab yashash inson hayotining ma'no mazmunini tashkil etadigan buyuk qadriyatlar sifatida ulug'lanishini nazarda tutadigan bo'lsak, bunday an'analar ruhida yashaydigan fidoyi insonlar mavjud ekan, xalqimizning bunyodkorlik dahosining yorin timsoli bo'lган Buxoro kabi shaharlar hech qachon zavol bo'lmaydi, abadiyatga daxldor bo'ladi, degan umidbaxsh fikr aks etadi ushbu tasvirlarda. Obidaning eng tepasida aylanib turuvchi ulkan yer shari va unda aks etgan O'zbekiston ramzi uzoq-uzoqlardan ko'zga tashlanib turadi. Bu, mamlakatimiz mustaqillika erishgach, dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rnini egalladi, degan barchamizga iftixor baxsh etadigan fikrni ifodalaydi.

Ushbu yodgorlikda aks etgan ana shunday ta'sirchan mazmun, chuqur hayotiy falsafa ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi va insonni bir daqiqa bo'lsa ham Buxoroning qanday shonli tarixni boshidan kechirganini tasavvur qilishga, o'ylashga undaydi. Bamisol bu haykal poyida turgan yosh avlodga bobolari murojaat qilayotgandek, mana shu yodgorlikni ko'radian odamning qalbida "Ey odamzod, mana shu aziz insonlar Buxoroning bugungi hayotiga, sen yashab turgan hayotga katta ta'sir ko'rsatgan. Odamzodni ezgulikka, adolatga chorlagan, to'g'ri yo'lga boshlab, yomon yo'ldan qaytargan shu azizinsonlardan sen ham ibrat ol!", degan da'vat jaranglab turganday bo'ladi.⁴⁰

2007-yil 8- yanvarda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida muhim ahamiyatga ega

⁴⁰www. Ilhom Djabbarov Uz "Кўхна ва боқий Бухоро" Ilhom Jabborov to'g'risida maqola. 2010 yil.

ekanini inobatga olinb hamda yozuvchining 100 yilligini keng nishonlash maqsadida, jumladan, tegishli tashkilotlar birgalikda Abdulla Qahhorning haykalini yaratish va uni belgilangan tartibda o’rnatish bo'yicha taklif kiritishni belgilab qo'ydi. Ushbu qarorga asosan, 2007-yil sentabr oyida poytaxtimizning so'lim maskanlaridan birida – O'zbekiston Milliy bog'ida atoqli yozuvchining muazzam haykali qad rostladi.⁴¹ Yozuvchi Abdulla Qahhor o'z hayollari ummoniga botgan holda kursida o'tirar ekan, uning qo'llarida tizzasiga qo'yib turgan kitob bilan tasvirlangan. Haykalda chuqur psixologik holat aks ettirilgan. Uning egnidagi kiyimlari, o'zini tutishidan qanchalik yuksak iste'dod egasi, hurfikr insonligini anglab olishimiz mumkin. Bu haykal orqali nafaqat biz balki, kelgusi avlodlar faxrlanib, o'lmas asarlarini zavq bilan o'qishlarini, monument yodgorligi orqali haykaltarosh ta'kidlamoqchi bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2016-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti tashkil etildi va ushbu institutning hovlisiga Ilhom Jabborov tomonidan yaratilgan “Alisher Navoiy” mahobatli haykali o’rnatildi (5 metr, gips).

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 25-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq Islom Karimov siymosini yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovda g'olib deb topilgan haykallarni mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida, Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahrida va u kishi birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o’rnatish belgilangan edi. Bu tanlovda Ilom Jabborov tomonidan yaratilgan obraz g'olib deb topildi va Toshkentdagi Oqsaroy binosi hovlisiga o’rnatildi.

⁴¹ Mustaqillik davri o'zbek monumental haykaltaroshlik san'ati. SMI- ASIA 2011.

Oqsaroy binosining oq marmar plitalardan iborat fonida Islom Karimov haykali judayam ulug' vor ko'rindi. Garchi bu asar u darajada mahobatli bo'lmasada, u joylashgan bino bilan birga uyg'unlashib ketgan. Haykaltarosh haykal kompozitsiyasi yechimiga alohida urg'u bergan. Ko'p hollarda haykallar statik ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda birinchi prezidentning tinib - tinchimas xarakteri, el-yurt ravnaqi uchun jon kuydirayotgan holati uning dinamikaga boy holatida ochib berilgan. Karimov obrazi uchun statik holatdagi haykal uning ichki xarakteriga mos tushmasdi shu sababli, haykaltarosh tomonidan uning ichki xarakterini ochib beruvchi obraz tanlangan. Bu haykalda Islom Karimovning nisbatan o'rta yosh holati ya'ni prezidentlikka kelgan davri ochib berilgan va tik turgan holatda yurib ketayotganday qilib tasvirlanishi uning hali keljakda juda katta marralarni zabit etamiz degan g'oyani anglatadi. Haykalning yuz ifodaviyligiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning nigohlari ona zaminga, xalqqa qarab turibdi negaki unda hali biz xalq bilan birga buyuk ishlarni ado etamiz deyayotganday taassurot uyg'otadi. Karimov haykali rasmiy libosda tasvirlangan. Haykaltarosh gipsning xususiyatini ham hisobga olib, u darajada ko'p drapirovkadan foydalanmagan chunki bu asarning obraziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haykaltarosh ushbu asari orqali o'zbek xalqining tinib-tinchimas, jonkuyar xarakteriga mos ravishda Islom Karimov obrazini yarata olgan.

Ikkinchi bobga yakun yasagan holda quyidagilarni aytish mumkinki, 1990-yillardan boshlab yangi mafkuraviy shart-sharoitlar ta'sirida milliy haykaltaroshlik mavqeい mustahkamlanib bordi. Ayniqsa, mahobatli haykaltaroshlik sohasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu sohada mutaxassis ijodkorlarning faol vakillari ajralib chiqdi. Chunonchi, Ilhom Jabborov, Kamol Jabborov, Jaloliddin Mirtojiyev, Anvar Rahmatullayevni shu o'rinda ta'kidlash mumkin. Ayniqsa, Ilhom Jabborovning o'rni ahamiyatli bo'lib, ijodida realistik malaka munosib o'zlashtirildi. I. Jabborov mustaqillikka erishganimizdan so'ng juda faol ijod qildi va tarixiy shaxslar obrazini birin-ketin yarata boshladi. Uning "Amir Temur" (Toshkent, Samarqand, Shaxrisabz), "Al-Farg'oniy" (Farg'ona, Quva), "Jaloliddin Manguberdi" (Xiva), "Mashrab"

(Namangan) kabi asarlari yurtimizning turli go'shalarining ko'rkiga ko'rk qo'shib turipti. Bundan tashqari, uning atoqli shaxslarga bag'ishlab ishlangan mahobatli asarlari ham e'tiborga molikdir: "Abdulla Qahhor" mahobatli haykali fikrimiz isbotidir. Ilhom Jabborovning Mustaqillik maydoni uchun yaratilgan "Motamsaro ona" hamda "Mustaqillik va ezgulik" kabi monumental yodgorliklari o'zbek xalqining Ona siyosiga bo'lgan hurmat ehtiromining namunasi deyishimiz mumkin. 2016-yili Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti hovlisiga Jabborov tomonidan ishlangan "Alisher Navoiy" haykalining o'rnatilishi bu yana bir bor buyuk bobokalonimiz sharafini ulug'lash demakdir. Uning shu oxirgi yillarda ya'ni 2017-yilda yaratgan O'zbekiston Respublikasi bиринчи prezidenti Islom Karimov xotirasini abadiylashtirish uchun yaratilgan Islom Karimovning mahobatli haykalini alohida aytib o'tishimiz joiz. Haykaltarosh hozirgi kunda shogirdlari bilan birgalikda yana bir tarixiy obraz Abu Rayhon Beruniy haykali ustida ish olib bormoqda. I. Jabborov ijod qilishdan to'xtamay bundan keyin ham yangidan yangi asarlar yaratadi degan umiddamiz.

XULOSA

Ushbu malakaviy bitiruv ishida haykaltarosh Ilhom Jabborovning ijodiy faoliyatini o'rganishga harakat qildik. Shu o'rinda haykaltarosh tomonidan yaratilgan ijod namunalari ham san'atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

1990-yillarning yangi mafkuraviy sharoiti milliy haykaltaroshlik mavqeini mustahkamlash bosqichini yuzaga keltirdi. Endilikda mazkur soha avvalgi ijodiy an'analardan farqli ravishda, birgina milliy yo'sinda rivojlanish (ko'proq mahobatli turida) jarayoniga erishdi. 1990-yillardan so'ng mahobatli va dastgohli haykaltaroshlikda yangi badiiy jarayonlar sodir bo'la boshladi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, san'at sohasida, xususan, monumental san'atda ham yangi davr boshlandi. Haykaltaroshlarimiz ijodida milliy va ma'naviy tiklanish, yangilanish jarayonlari bo'y ko'rsatdi. Nihoyatda nozik va murakkab, har bir detal, hatto eng mayda bo'lib ko'ringan masala ham jiddiy yechim talab etadigan ushbu sohada yaratilajak har bir haykalga eng avvalo teran falsafiy – hayotiy ma'no berish, unda milliy g'oyamiz tamoyillarini namoyon etish masalasi muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilib, soha rivojiga katta e'tibor qaratildi va bu sohaga hozirgi kunda ham katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston mahobatli haykaltaroshligida o'zining badiiy mahorati bilan ajralib turadigan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ilhom Jabborov asarlari g'oyaviy-badiiy uyg'unlik salohiyati bilan boshqa haykaltaroshlar asarlaridan farqlanib turadi. Ilhom Jabborov ijodida obraz yechimining hayotiy ko'rinishiga muvofiqligi, realistik an'analarni yetakchi o'ringa ko'tarilishi, shuningdek haykallarning ulug'vorlik jihatiga katta e'tibor berish xususiyatlari jadallahshdi. Ayniqsa, qadimgi va uyg'onish davri haykaltaroshlari merosini ijodiy tahlil va tadbiq etishga urinishi asarlarining plastik kompozitsiyasiga sezilarli ta'sir qildi. Haykaltaroshning ilk ijodiy namunalari ham e'tiborga molikdir. U mahobatli

haykaltaroshlik sohasiga kirib kelguniga qadar dastgohli haykaltaroshlik bilan shug'ullangan. Jumladan, uning eng birinchi yaratilgan ishlaridan biri "Hayol" asaridir. Haykaltarosh bilan suhbat chog'ida mening eng birinchi ishlarimdan biri "Hayol" asaridir, men bu asarimni harbiy xizmatda paytim yaratgan edim, ushbu haykalim orqali tanildim desam mubolag'a bo'lmaydi degan fikrni aytib o'tdilar. Bundan tashqari, uning dastgohli haykaltaroshlikda juda ko'plab asarlari e'tiborga molik. Jumladan, "To'y", "Tug'ilish va o'lim", "Qiz", "Spitamen" "Navoiy va Jomiy" asarlari o'zining g'oyaviy mazmuni bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillari milliy haykaltaroshlik rivojida I. Jabborovning ijodi alohida o'rinni egalladi. Uning "Amir Temur" (Toshkent, Samarqand, Shaxrisabz), "Al-Farg'oniy" (Farg'ona, Quva), "Jaloliddin Manguberdi" (Xiva), "Mashrab" (Namangan) kabi tarixiy shaxslar obrazlarida milliy g'urur va jasorat, mardlik, shijoat ramzları o'z ifodasini topgan.

1990-2010-yillar oralig'ida Ilhom Jabborov juda sermahsul ijod qildi va shu yillar mobaynida uni mashhurlikka olib chiqqan asarlari yaratildi. I. Jabborovning Mustaqillik maydoni uchun yaratilgan "Motamsaro ona" (1999-yil) hamda "Mustaqillik va ezgulik" (2005-yil) kabi monumental yodgorliklari o'zbek xalqining "Ona" siymosiga bo'lgan hurmat ehtiromining namunasi deyishimiz mumkin.

Ijodkor san'atda o'z yo'lini, o'ziga xos uslubini topishga intiladi va bu yo'lda tinimsiz izlanishlar olib boradi. Bu izlanishlar natijasida esa uning o'ziga xos ichki olami namoyon bo'lib boradi. Haykaltarosh asosan ma'rifatparvar insonlar qiyofasini yaratgani uchun ularning hayoti, ularning ilm va ijod yo'lini mukammal tadqiq etadi. Shuning uchun ham uning asarlarida yashirin ruhiy holatlar, qalb kechinmalari, davr va hayot bilan bog'liq muammolar mavhum obrazlar orqali talqin etiladi. Shu o'rinda, I. Jabborovning "Abdulla Qahhor" (2007-yil, gips) asarini ta'kidlashimiz mumkin. Asarda yozuvchining ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, ruhiy holati haykaltarosh tomonidan tomoshabinga aniq yetkazib berilgan. 2010- yilda yaratilgan "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumenti ham o'zining kompozitsion yechimi bilan alohida ajralib

turadi. Ilhom Jabborov qisqa ijodiy to'xtalishdan so'ng (ya'ni 2010-yildan 2016-yilgacha) yana mahobatli haykaltaroshlik asarlari yaratishga kirishdi.

2016-yili Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti hovlisiga Jabborov tomonidan ishlangan “Alisher Navoiy” haykalining o'rnatilishi bu yana bir bor buyuk bobokalonimiz nomini sharaflashdir. Ilhom Jabborovning shu oxirgi yillarda ya'ni 2017-yilda yaratgan O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov xotirasini abadiylashtirish uchun yaratilgan Islom Karimovning mahobatli haykalini alohida aytib o'tishimiz joiz. Hozirgi kunda Ilhom Jabborov shogirdlari bilan birgalikda Abu Rayhon Beruniy (mis, 6 metr) mahobatli haykalini yaratmoqdalar. Ushbu haykal Beruniy shahriga o'rnatilishi mo'ljallanmoqda.

Haqiqiy ijodkor hech qachon ijod qilishdan to'xtamaydi. U har doim yangilik izlaydi va o'z bilim va ko'nikmalarini boyitib boradi. Ilhom Jabborov ham haykaltaroshlikda olgan bilimlarini ko'plab shogirdlariga o'rgatib kelmoqda. Shulardan Asrorov O'tkir, Boqiyev Yigitali kabi shogirdlari ustozlari izidan borib, uning an'analarini davom ettirmoqdalar.

Kelgusida biz Ilhom Jabborovdan yangidan yangi asarlar kutib qolamiz va ijodiga ulkan parvozlar tilaymiz.

ILOVALAR

1974-1994-yillar – O’zbekiston rassomlar uyushmasi erkin ijodkori;

1994-2000-yillar – Respublika rassomlik bilim yurti o’qituvchisi;

2000-2003-yillar – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mahobatli rangtasvir kafedrasi professori;

2003-2006-yillar - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti haykaltaroshlik kafedrasi professori;

2006-2009-yillar - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti haykaltaroshlik kafedrasi katta o’qituvchisi;

2009- y. – h.b. - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti haykaltaroshlik kafedrasi professori.

Davlat mukofotlari

1989-yil “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi” faxriy unvoni.

A. Qodiriy nomidagi davlat mukofoti.

Ilhom Jabborovning asosiy mahobatli haykallari

- 1993-yil – “Amir Temur” haykali. Toshkent. 7 metr, tagligi 2 metr, bronza.
- 1996-yil – “Amir Temur” haykali. Samarqand. 6 metr, bronza.
- 1996-yil – “Amir Temur” haykali. Shahrisabz. 9 metr, tagligi 7 metr, bronza.
- 1992-yil – “Mashrab” haykali. Namangan. 7 metr, mis.
- 1998-yil - “Al-Farg’oniy” haykali. Farg’ona. 9 metr, bronza.
- 1998-yil – “Al-Farg’oniy” haykali. Quva. 6 metr, bronza.
- 1999-yil – “Jaloliddin Manguberdi” haykali. Xorazm. 11 metr, tagligi 94,1 kv.m, mis.
- 1999-yil – “Motamsaro ona” yodgorligi. Toshkent. 11 metr, bronza.
- 2000-yil – “Ibn Sino” haykali (byust). Belgiya. Kortreyk shahri. 2,5 metr, bronza.
- 2004-yil – “Nizomiy Ganjaviy” haykali (byust). Toshkent. Bronza.
- 2005-yil – “Mustaqillik va ezgulik” monumenti. Toshkent. 9 metr, bronza.
- 2007-yil - “Abdulla Qahhor” haykali. Toshkent. 3,5 metr, gips.
- 2010-yil – “Ko’hna va boqiy Buxoro” monumenti. Buxoro. 18 metr, tosh.
- 2017-yil – “Alisher Navoiy” haykali. Toshkent. 5,5 metr, gips.
- 2017-yil – “Islom Karimov” haykali. 5,5 metr, gips.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasmiy adabiyotlar

- 1.1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – 2016.
- 1.2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent – 2017.
- 1.3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – 2017.
- 1.4. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. Toshkent – 2017.
- 1.5. Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'naliishi.
- 1.6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent: O'zbekiston, 1997. 56-b.
- 1.7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. "Ma'naviyat" Toshkent: O'zbekiston, 2008.
- 1.7. Karimov I. A. Amir Temur haqida so'z. Toshkent: O'zbekiston. 1996.

2. Qonun, farmon va qarorlar

- 2.1. O'zbekiston Respubliksi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 23-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yodgorliklar va haykallarni loyihalashtirish hamda qurishni tartibga solish to'g'risida" gi Qarori.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risidagi 29.12.1994-yildagi 630-sonli Qarori hamda 16.08.1996-yildagi 346-sonli farmoyishning 3-bandni.
- 2.3. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to'g'risida 1998-yili Vazirlar Mahkamasining 408-sonli Qarori.

2.4. 2006-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Mustaqillik va ezgulik monumenti to'g'risida" Qarori.

2.5. 2007-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qarori.

3. Kitoblar

- 3.1. Abdullayev. N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 – 236 b
- 3.2. Ахмедова Н.Р. «Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность и диалог» Т., 2004 г. - 160 с.
- 3.3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. Ленинград 1927.
- 3.4. Boymetov B. "Haykaltaroshlik va plastik anatomiya" T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 120 - b
- 3.5. Hakimov. A. "O'zbekiston tasviriy san'ati antalogiyasi" T.2011.
- 3.6. Изобразительное искусство Узбекистана. Очерк истории живописи, графики, скульптуры. – Ташкент: Фан, 1957. – 180 с.
- 3.7. Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972. – М.: СХ, 1976. – 608.
- 3.8. Mualliflar guruhi. "O'zbekiston san'ati 1991-2001" T. Sharq nashriyoti - 2001.
- 3.9. "Очерки искусства Средней Азии" М. Искусства 1982
- 3.10. Oydinov. N. O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar. – Toshkent "O'qituvchi". 1997.
- 3.11. Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана вторая половина XIX в -50 е гг. XX в. – Ташкент: Изд. лит. и искусства, 1972. – 106 с.
- 3.12. Такташ Р.Х. Художественно-критические этюды. Пути и проблемы становления узбекского изобразительного искусства. – Ташкент: Фан, 1992. – 150 с.

- 3.13. Веймарн Б. Искусство Средней Азии. М. – Л., «Искусство», 1940.
- 3.14. Веймарн Б., Черкасова Н. Искусство советского Узбекистана. Очерки. Живопись. Графика. Скульптура. М., «Искусство», 1960.

4. Ilmiy maqolalar

- 4.1. Akilova K.B. O'zbekiston haykaltaroshligi 1991 – 2006 \\\ O'zbekiston haykaltaroshligi 1991-2006. Toshkent, 2006.
- 4.2. Ahmedova N.R. Haykaltarosh anglagan haqiqat. \\\ SAN'AT. – Toshkent. 2015.- № 1. 23-27 –b.
- 4.3. Olimxo'jayeva L. Haykaltarosh.\\\ Sovet O'zbekistoni san'ati. – Toshkent.1981.- №12. 10-11-b.
- 4.4. Po'latov. D. Farg'ona vodiysi haykaltaroshligi.\\\ SAN'AT. – Toshkent. 2013. - №3. 33-b.
- 4.5. Rahimov. J. San'atga aylangan lahzalar. \\\ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1989. 4-b.
- 4.6. Taktash R.X. Jo'ldosbek Quttimurodov. \\\ Sovet O'zbekistoni san'ati. – Toshkent. 1982. - №8. 31-32-b.
- 4.7. Taktash R.X. Haykaltarosh Azamat Xotamov. \\\ Sovet O'zbekistoni san'ati. – Toshkent – 1982.- №12. 16-17-b.
- 4.8. Xotamov. G'. Katta orzu yo'lida. \\\ Toshkent oqshomi. –Toshkent – 1978. 5-b.

5. Avtoreferat va dissertatsiyalar

- 5.1. А.Хакимов. Современная декоративная пластика Республики Средней Азия. Ташкент: Фан,1992.
- 5.2. Г. Бабажанова. Синтез искусств на современном этапе (тенденции и развитыя) - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1315.

- 5.3. Г. Бабажанова. Увековечивая память павших. - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1293.
- 5.4. Г. Бабажанова. Поиски своеобразия в 1970-1980-е годы. - Ташкент, 1986. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1293\65.
- 5.5. D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent – 2007.
- 5.6. Р.Такташ. Станская скульптура Узбекистана 1960-1980-х годов – Ташкент, 1989 – Фонд НИИ Искусствознания. № 1339.
- 5.7. Р.Такташ. Художественные процессы в изобразительном искусстве Узбекистана 1980-ое (живопись, скульптура). Ташкент, 1995. – Фонд НИИ Искусствознания. № 1408.

ILLYUSTRATSIYALAR



I. Jabborov ustaxonada



Hayol (yog'och)



Navoiy va Jomiy (bronza)



Spitamen (tosh)



Qiz (shamot)



To'y (shamot)



Tors (tosh)



Tug'ilish va o'lim (shamot)



Tolstoy (shamot)



Hamid Olimjon (marmar)



Mashrab (mis)




Amir Temur. Toshkent



Amir Temur. Samarqand.



Amir Temur. Shahrисабз.



Al-Farg'oni. Farg'ona



Jaloliddin Manguberdi. Xorazm



Nizomiy Ganjaviy. (byust)



Motamsaro ona monumenti



**Mustaqillik va ezgulik
monumenti**



Abdulla Qahhor. Toshkent.

Adiblar xiyoboni




**Ko'hna va boqiy Buxoro
yodgorligi. Buxoro**



Ibn Sino (byust) Belgiya

Kortreyk shahri



Alisher Navoiy



Islom Karimov haykali. Toshkent.



**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik fakulteti, “tasviriy san'at tarixi va nazariyasi”
yo'nalishi bitiruvchisi Jo'rayeva Matluba Mannon qizining
“Haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodi” mavzusidagi malakaviy
bitiruv ishiga ichki**

TAQRIZ

Ushbu malakaviy bitiruv ishida Matluba Jo'rayeva haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodini yoritishni maqsad qilgan. O'zbekiston haykaltaroshligida Ilhom Jabborovning o'rni muhim ahamiyatga ega. Bitiruvchi izlanish doirasida dastlab, XX asr O'zbekiston haykaltaroshligi rivojini bosqichma bosqich tahlil qilib chiqqan. Bu jarayonda u bir qator ilmiy manbalardan foydalangan. I. Jabboroving ijodini yoritishda haykaltaroshga bag'ishlangan alohida maqolalarni topib, ulardan unumli foydalangan.

Mazkur malakaviy bitiruv ishda haykaltaroshning ilk ijod yillaridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan davri keng ma'lumotlarni to'plash orqali yoritib berilgan. Talaba asosan Ilhom Jabborovning tarixiy shaxslar obraziga alohida e'tibor qaratgan. U Amir Temur (Toshkent, Samarqand, Buxoro) haykallarini, Al-Farg'oniy (Farg'ona), Jaloliliddin Manguberdi (Xorazm), Mashrab (Namangan) kabi mahobatli haykallarini tahlil qilib o'tgan. Bundan tashqari diplomant tomonidan haykaltaroshning "Motamsaro ona", "Mustaqillik va ezgulik monumenti", "Ko'hna va boqiy Buxoro", "Abdulla Qahhor", "Islom Karimov" kabi mahobatli yodgorliklarining badiiy tahlillariga san'atshunoslik nuqtai nazaridan e'tibor qaratgan.

Matn so'ngida ma'lumotlarni umumlashtirgan holda Ilhom Jabborov yaratgan yirik monumental asarlarning ro'yxatini, ularning hajmi va qayerda joylashganligi alohida keltirib o'tgan. Malakaviy bitiruv ishining tili ravon, ma'lumotlar mantiqiy izchillikda bayon etilgan va har bir bobdan so'ng xulosaviy fikrlar bayon etilgan. Yuqorida tavsiflar asosida Jo'rayeva Matluba Mannon qizining "Haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodi" mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini "a'lo" bahoga tavsiya etaman.

Taqrizchi: San'atshunoslik fakulteti "tasviriy san'at tarixi va nazariyasi" dotsenti

T. B. Ahmedov

IMZOSINI TASDIQLAYMAN
• 11 • 06 • 2018 •



**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik fakulteti, “tasviriy san'at tarixi va nazariyasi”
yo'nalishi bitiruvchisi Jo'rayeva Matluba Mannon qizining
“Haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodi” mavzusidagi malakaviy
bitiruv ishiga tashqi**

TAQRIZ

Zamonaviy O'zbekiston haykaltaroshligining boshlanishi juda qadimiydir. Haykaltaroshlik san'ati rivojining yangi o'rami XX asrda keldi va san'at tarixiga ulkan ijtimoiy-tarixiy, badiiy-estetik, falsafiy-dunyoqarashli o'zgarishlar asri sifatida kirib keldi. Aynan shu sababli hozirgi zamonaviy haykaltaroshlik asarlarini o'rganish va ularni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda M. Jo'rayeva malakaviy bitiruv ishi uchun tanlangan mavzu dolzarb sanaladi.

Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobи “XX asr O'zbekiston haykaltaroshligidagi tendensiyalar” deb nomlanib, diplomant tomonidan ikki bo'limga ajratilgan holda o'rganib chiqilgan. “XX asr ikkinchi yarmi O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati” bo'limda muallif tomonidan o'sha davrdagi siyosiy muhit, shuningdek, ijtimoiy-badiiy hayot, faol ijod qilgan haykaltaroshlar haqida va ularning asarlari tahliliga alohida to'xtalib o'tilgan. “Haykaltarosh Ilhom Jabborovning ilk ijodiy shakllanish davri” deb nomlangan keyingi bo'limda Ilhom Jabborovning ilk ijod namunalari haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Ikkinchi bob “O'zbekiston mustaqillik yillari haykaltaroshlik san'atida Ilhom Jabborov ijodi” deb nomlangan bo'lib, unda bitiruvchi mustaqillik yillari mahobatli haykaltaroshlik sohasida olib borilgan ishlar va undagi asosiy g'oyalarni aniqlashga manbashunoslik negizida tahlil etishga uringan. Birinchi bo'limda Ilhom Jabborovning tarixiy shaxslar obraziga alohida to'xtalib, “Amir Temur”, “Al-Farg'oniy”, “Mashrab”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Nizomiy Ganjaviy”, “Ibn Sino” kabi asarlarini san'atshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil etishga harakat qilgan. Bobning “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ilhom Jabborov ijodida mahobatli asarlar” nomi ostidagi bo'limida haykaltaroshning “Motamsaro ona”, “Mustaqillik va Ezgulik”, “Ko'hna va Boqiy Buxoro” kabi yodgorlik majmualari haqida o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan. Bundan tashqari, Ilhom Jabborovning atoqli shaxslarga atab yaratgan mahobatli haykallari “Abdulla Qahhor”, “Islom Karimov” asarlari haqida ham bitiruvchi tomonidan ma'lumotlar berilgan. Ishning xulosa qismida bitiruvchining to'plagan katta ma'lumotlari umumlashtirilgan. MBI da M. Jo'rayeva muayyan mavzularda san'atshunoslikka oid tadqiqot ishlarini olib borish, to'plangan materiallarni tahlil qila olish kabi kasbiy malakaga ega bo'lган. Mazkur malakaviy bitiruv ishi oliy o'quv yurtining bakalavriat talablariga to'liq javob beradi.

Ishning yutuqlaridan tashqari ba'zi juz'iy kamchiliklari ham mavjud, lekin bu ishning mazmuniga ta'sir qilmaydi. To'plangan manbalarning kengligi, yangiligi, ularga tahliliy munosabatda bo'lganligini inobatga olgan holda Matluba Jo'rayevaning "Haykaltarosh Ilhom Jabborov ijodi" mavzusidagi bitiruv ishini "a'lo" bahoga tavsiya etaman.

Taqrizchi: Toshkent arxitektura qurilish instituti, "Arxitektura tarixi va nazariyasi" kafedrasи mudiri

SH. N. Abdullayev

